

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**“IQTISODIYOT VA TURIZM” FAKULTETI
“TURIZM VA MEHMONXONA XO`JALIGI” KAFEDRASI**

“Himoyaga ruxsat etiladi”

“Iqtisodiyot va turizm” fakulteti dekani

_____ v.v.b Yavmutov D.Sh.

“Himoyaga ruxsat etiladi”

“Turizm va mehmonxona xo`jaligi” kafedrasi
mudiri

_____ v.v.b Ro`ziyev S.S.

«_____» 2019 yil

«_____» 2019 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**BUXORO VILOYATIDA TURIZMNINING MAVSUMIYLIK MUAMMOSI
VA UNI YUMSHATISH YO`NALISHLARI**

BAJARDI:

“Turizm (xalqaro va ichki) ” ta`lim
yo`nalishi 3-1 TUR-15 guruh talabasi
Botirov Shonazar Shernazar o`g`li

ILMIY RAHBAR:

«Turizm va mehmonxona xo`jaligi»
kafedrasi katta o'qituvchisi
Dilmonov Q.B.

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
BITIRUV MALAKAVIY ISHIGA TOPSHIRIQ

“TASDIQLAYMAN”

Kafedra mudiri S.U.Tadjiyeva

«_____» _____ 2018 y.

Talaba: Botirov Shonazar Shernazar o`g`li

1. **Ta`lim yo`nalishi:** Turizm(xalqaro va ichki turizm).
2. **Bitiruv malakaviy ishining mavzusi:** Buxoro viloyatida turizmnining mavsumiylik muammosi va uni yumshatish yo`nalishlari
3. **Bitiruv malakaviy ishi ob`ekti:** Turizm faoliyati bilan shug`ullanuvchi firmalar, tashkilotlar.
4. **Bitiruv malakaviy ishi rahbari:** Dilmonov Q.B.
5. **Bitiruv malakaviy ishi maqsadi:** Bitruv malakaviy ishining maqsadi turizm sohasida innovatsiyalardan foydalanish jarayonlarini kengaytirish bo`yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.
6. **Ish rejasi:** _____

BMI bo`limi	Bitiruv malakaviy ishi bo`limi nomi	Bajarish muddati
I Bob	Turizmda mavsumiylik muammosi.	
II Bob	O`zbekiston turizmida mavsumiylik muammosi va uni yumshatish yo`nalishlari	
III Bob	Buxoroda turizmi mavsumiylik muammosi yumshatish yo`nalishlari	
Xulosa takliflar		

7. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun zarur bo`lgan materiallar:

- a) adabiyot manbalari: O`zbekiston Respublikasi Prezidentining, respublikamiz va xorijdagi etakchi agrar-iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari va asarlari.
- b) qonuniy-me`yoriy hujjatlar: O`zbekiston Respublikasining Qonunlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va boshqa me`yoriy hujjatlar.
- v) statistik va boshqa ma`lumotlar: respublika Davlat Statistika Qo`mitasi va Buxoro viloyati turistik tashkilotlar ma`lumotlari.

8. Tasvirlash materiallari: jadval, chizma va slaydlar.

9. Topshiriq berilgan kun: 2018 yil “_____”

10. Ishni topshirish muddati: 2019 yil “_____”

11. Ilmiy rahbar: Dilmonov Q.B.

12. Qabul qildim: _____

Kafedra mudirining bitiruv malakaviy ishini himoyaga qo`yish haqidagi xulosasi

MUNDARIJA:

Kirish	4
I bob. Turizmida mavsumiylik muammosi.	
1.1 Turizmda mavsumiylikning shakli va xususiyati.....	7
1.2 Mavsumiylikning turizmni rivojlantirish va uning samaradorligiga ta'siri, rejalashtirishda uni hisobga olish.....	13
II bob. O'zbekiston turizmida mavsumiylik muammosi va uni yumshatish yo'nalishlari	
2.1. Turizmnинг yangi yo'nalishlarini tashkil qilish orqali mavsumiylik muammosini yumshatishga erishish (Bo'rontepa" arxeologik yodgorligidagi "Oazis Safari" misolida).....	18
2.2. Turizmnинг agro-eko turizm yo'nalishlarini tashkil etish (Shofirkon tumanidagi "Afzal Polimer zamini" fermer xo'jaligi misolida).....	27
2.3. Mavsumiylikni yumshatishga viloyatining tuman (shahar)larida o'tkaziladigan festivallarning ahamiyati.....	32
III bob Buxoroda turizmi mavsumiylik muammosi yumshatish yo'nalishlari	
3.1. Buxoro turizmini rivojlantirish istiqbollari	37
3.2. Buxoro turizmida mavsumiylikni yumshatish chora tadbirlari	41
3.3. Buxoro viloyati ichki turizmi SWOT tahlili va turizmni rivojlantirishga doir amalga oshirilayotgan ishlar va istiqboldagi vazifalar.....	50
Xulosa	56
Foydalanilgan adabiyotlar	60
Annotation	64
Ilovalar	71

KIRISH

Bugungi juda tezlik bilan taraqqiy etib borayotgan dunyoda insonlar fikri, ularning harakatlari, hayotdan zavq olish yo'llari o'zgarib boryapti. Insonlar bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazib, dam olishga, sog'ligini tiklashga, dunyoni, xalqlarning urf - odatlari, qadriyatlarini bilishga intilmoqdalar. Bunday xizmatlarni turizm sohasi ko'rsatadi. Insoniyat har doim o'zining harakat doirasini o'zgartirib, yangi yerkarni kashf qilishga intilgan. So'nggi asrga kelib bunday intilishlar kuchaydi va turizmning rivojlanishiga turki bo'ldi. Ayrim mamlakatlarda turizm sohasi juda ham barqaror rivojlanib bormoqda va ularning har yillik o'sish sur'ati 8%-10% gacha boradi. Bu esa mamlakat turizm sohasining yoki milliy turizmning qanchalik darajada mamlakatlar iqtisodiyoti tizimida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Shunisi qiziqli, milliy turizm rivojlanishi natijasida transport, bozor infratuzilmasi, savdo-sotiq, oziq-ovqat tarmoqlari, qurilish, hunarmandchilik va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlari ham rivojlanib boradi.

O'zbekiston yangi 21-asrga shaxdam qadamlar bilan kirib keldi. 21-asr- turizm va sayyohlik asri bo'ladi deb bashorat qilinmoqda. 21-asrda turizm o'zining salmoqli hissasi bilan respublika budgetida katta o'rinn egallashi kutilmoqda. Bunga respublikamizda har tomonlama imkoniyatlar va asoslar yetarli. Faqat zamonaviy milliy turizmni rivojlantirish strategiyasini hayotga tatbiq etib, turizm sohasini yuqori pog'onalarga ko'tarish imkoniyatini yaratishimiz kerak. O'zbekistonda turizm yangi soha hisoblanmaydi, bu soha qadimdan mavjud bo'lgan, faqat bizning oldimizda turgan vazifa milliy turizmni yangicha strategiya asosida rivojlantirish va istiqbolini belgilashdir.

Turizm turistlarga xizmat ko'rsatishda aloqador bo'lgan tarmoqlar majlisini qamrab oluvchi o'ziga xos dam olish sanoati hisoblanadi. Turizm sohasidagi hamkorlik xo'jalik jamoat ishlab chiqarishga aholining band bo'limgan, yoki qisman band bo'lgan qatlamlarini jalb qilib, mehnat resurslaridan to'liq va oqilona foydalanish muammosini hal qilishga yordam beradi. Bu ayniqsa sanoati yaxshi rivojlanmagan mintaqalar uchun muhimdir.

“O’zbekistonda milliy turizmni rivojlanish istiqbollari”- bu mavzu bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Fikrimizning isboti sifatida bugungi kunda turizm sohasida katta yutuqlarga erishilayotganligi, tez sur’atlar bilan o’sib borayotganligi, yangidan – yangi mehmonxonalarining barpo etilayotganligi, ishchi o’rinlari sonining ko’payishi, malakali mutaxassislarining ortib borishi, turistlar oqimining yildan – yilga ko’payayotganligini ta’kidlab o’tishimiz joiz deb o’ylayman. Daromad keltirishi bo’yicha turizm neft va avtomobil sohasidan keyin uchinchi o’rinda turadi. Tabiiyki, valyuta oqimini ko’payishiga olib keladi. Shundan kelib chiqqan holda, madaniy yodgorliklardan turizm maqsadida foydalanish masalalarini, ushbu sohadagi ilg’or tajribani o’rganish zaruriyati ushbu bitiruv malakaviy ishning mavzusi dolzarbligini belgilab beradi.

Bitiruv malakaviy ishning obyekti: O’zbekiston turizm sohasidagi korxonalar, ishning predmeti esa ushbu korxonalardan turizm maqsadida foydalanish yo’nalishlaridir.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: O’zbekistonda milliy turizm sohasida bundanda yuqori cho’qqilarga erishishi va mavsumiylni yumshatishni ta’minalashda O’zbekiston turizm sohasining asosiy maqsadi bo’lib, ish o’rinlari soni, soliq tushumlari, chet el valyutasi oqimini ko’paytirish hisobiga turizmning Yalpi Milliy Mahsulotga va Milliy Iqtisodiyotni rivojlantirshga katta hissa qo’shishini ta’minalaydigan raqobatbardosh turistik bozorini shakllantirish va rivojlantirish yo’nalishlari borasida tahlillarni amalga oshirish hisoblanadi. Bundan tashqari, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, sohaga xalqaro standartlarni joriy etgan holda, O’zbekiston milliy standartlarini ishlab chiqish, xizmat ko’rsatish sohasini yanada yaxshilash masalalari oldimizda turibdi.

Bitiruv ishning tarkibi. Qo’yilgan maqsad va vazifalar izlanishning mantig`ini aniqlashda va bitiruv malakaviy ish tarkibida o’z aksini topdi. Bitiruv malakaviy ish kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

Mavzuning dolzarbliji, uning o'rganilganlik darajasi, ishning ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, ob`ekti bayon qilingan. Bitiruv malakaviy ishning birinchi bobida Turizmda mavsumiylik ahamiyati haqida fikrlar keltirilgan. Ikkinchi bobda Turizmda mavsumiylik qisqacha O'zbekiston bo'yicha tahlil qilingan. Bitiruv ishning uchinchi bobida esa Turizmda mavsumiylik qisqacha Buxoro bo'yicha tahlil qilingan. Bu boradagi muammolar, ularni hal etish imkoniyatlari va istiqbollari, barqaror turizm shakllantirishda davlat siyosatining mohiyati, bu siyosatning tarkibi, o'ziga xosligi o'rganilib chiqilgan. O'zbekistonda milliy turizmni rivojlantirish borasida davlat olib borayotgan va qilishi zarur bo'lgan ishlar o'rganilib chiqilgan. Shular asosida xulosalar qilingan. Ishning xulosa va takliflar qismida tadqiqot jarayonida olingan asosiy xulosa va takliflar berilib, so'nggi qismida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalarni ko'rishingiz mumkin.

Tadqiqotlar doirasida quyidagi ilmiy ishlar e`lon qilingan:

- 1.Botirov Sh.Sh. Turizm sohasining tasniflanishi va turlari. "Ta`lim, iqtisodiyot va turizm sohalarida strategik islohotlarni amalga oshirish muammolari va yechimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya maqolalar to`plami. 2019 yil 20 fevral. -Buxoro: 2019, 76-79 b.
- 2.Dilmonov Q.B., Botirov Shonazar. Buxoro viloyatida turizmning mavsumiylik muammosi va uni yumshatish yo'nalishlari. "Turizm, ta'lim va iqtisodiyot sohalarida strategik islohotlar dolzarbliji" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya maqolalar to`plami. 2018 yil 20 sentyabr. -Buxoro: 2018, 528-532 b.

I BOB TURIZMIDA MAVSUMIYLIK MUAMMOSI.

1.1 Turizmida mavsumiylikning shakli va xususiyati

Mavsumiylik – turistik oqimlarning unchalik katta bo‘lmagan vaqt oralig‘ida ma’lum joylarda to‘planishi xususiyati.

Iqtisodiy nuqtai nazardan mavsumiylik bir xildagi iqlimiylar va ijtimoiy omillar ta’siri ostida turistik xizmatlar va tovarlarga turistik bozordagi talab va taklifning har yili tebranib turishidir. Mavsum – turistlar oqimining eng ko‘paygan vaqtidir.

Ikki mavsum mavjud bo‘lganda (yozgi va qishki) ular orasida mavsumlararo vaqt bo‘ladi. Turistlar oqimining eng ko‘paygan vaqt «qizg‘in mavsum», ular deyarli bo‘lmagan vaqt «o‘lik mavsum» deyiladi.

Turizmnинг о‘зига xос xususiyatlaridan biri mavsumiylik bo‘lib, u turistik korxonalarining me’yorli ishlashini qiyinlashtiradi, iqtiosdiy, ijtimoiy va tashkiliy-texnik tusdagi noqulay oqibatlarni keltirib chiqaradi. Mavsumiylikka oid noqulay ta’sirlar turistik jarayonning barcha tashkil qiluvchilariga – resurslar, joylashtirish vositalari, oziq-ovqat, transport, shuningdek xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar va turistlarning o‘zlariga ham taalluqilidir. Qisqa turistik mavsum faqat plyajlar, mineral suvlar, qimmatbaho turistik infrastruktura va malakali xodimlarning xizmatlaridan qisman foydalanishga sabab bo‘ladi, xolos. Bu kadrlarning qo‘nimsizligini keltirib chiqaradi, ko‘p xodimlarning o‘z malakasini oshrishga qiziqishini kamaytiradi. Mavsumiylik dam olish joyiga boradigan yo‘llarda transport vositalarining to‘planib qolishiga olib keladi, bunday holda xizmat ko‘rsatish qulayligi va sifati pasayadi, turizmga xizmat ko‘rsatuvchi transport, sanoat va qishloq xo‘jaligi korxonalarining ishidagi bir maromlilik buziladi. Mavsumiylik dam olish joyiga boradigan yo‘llarda transport vositalarining to‘planib qolishiga olib keladi, bunday holda xizmat ko‘rsatish qulayligi va sifati pasayadi, turizmga xizmat ko‘rsatuvchi transport, sanoat va qishloq xo‘jaligi korxonalarining ishidagi bir maromlilik buziladi. Turizmdagi mavsumiylikni belgilab beruvchi boshqa omil ta’tillardan an’anaviy yozda foydalanish hisoblanadi. Ma’lumotlarga qaraganda, ikkita yoz oyi mobaynida (iyul, avgust) Evropa bo‘ylab

xorijiy turistlar umumiy sonining taxminan yarmi sayohat qiladi. Avgust oyida Fransiyada ishlovchilarning 80% ta'tilda bo'ladi. Mavsumiylikning umumiy strukturasi hozirda ancha aniq belgilab olingan. 1 va 2-choraklardagi oylarga turizmi rivojlangan mamlakatlarda butun yuklanma (nagruzka)larning 2/3 qismi to‘g‘ri keladi. Har bir sayohat yoki tur zamirida unga sabab bo`luvchi asosiy maqsad yotadi. Bu maqsadning yo`qotilishi yoki unga erisha olmaslik ushbu sayohatni turizm tarkibiga kiritmaslikka asos bo`ladi yoki turist qoniqish olmaydi. Shunday qilib, har qanday sayohat yoki turistik safardan asosiy maqsad bor bo`lib, unga ko`ra bu sayohatdan turizmning biror turiga mansubligi aniqlanadi, turist va uning turi statistikaning u yoki bu turiga kiritiladi, unga turli xil imtiyozlar beriladi.

Har bir turist biror mamlakatga borganda biron narsani, masalan, sovg`a yoki foydalinish uchun biror predmetni sotib olishni maqsad qilib qo`yadi. Biroq, ba'zi turistlar turistik safarga borishda mayda tovar partiyalarini harid qilish va keyinchalik sotish uchun o`z mamlakatiga olib kelishni maqsad qilib oladi. Garchi mahalliy bozorlarda rejalashtirilgan tovarlarning barchasini sotib olgandan so`ng, turistlar mahalliy restoran yoki plyajlarda bir necha kun dam olsada, tovar olib - sotish ularning asosiy maqsadiga aylanadi. Bunday turistlar shopping - turistlar toifasiga mansub bo`lib, ular uchun maxsus shop - turlar tashkil qilinadi. Rossiyada bunday turistlar «chelnoklar», - deb nomланади.

Turizm tamoyillarining buzilishi, ya'ni turizmdan mazkur mamlakat qonunchiligidagi belgilab ko`yilgandan o`zga maqsadlarda, yanada aniqroq aytganda imtiyozli rejimlardan foydalanimishi mamlakat hukumatining g`ashiga tegadi va bundan bevosita yoki bilvosita turistik faoliyat nazoratiga ta'luqli bo`lgan emigratsiya va boshqa xizmatlarning qarshiligiga sabab bo`ladi. Masalan, agar turistik firma mamlakatga turistlar o`rniga foxishalarni mehmon bo`lib kelishini o`z oldiga maqsad qilgan bo`lib, shu maqsadda turistlarni, emigrantlarni, ish qidirib kelganlarni yoki o`qish uchun kelganlarni olib kiradigan bo`lsa, bu holda firma mazkur mamlakat elchixonasining konsullik bo`limida o`z akkreditatsiyalaridan mahrum etiladi va xalqaro turizmga barham beriladi.

Turizm - boshqa mamlakatga ayg`oqchi yuborish hamda iqtisodiy va boshqa turdag'i ma'lumotlarni to`plash va tahlil qiliш bilan shug`ullanuvchi ba'zi - bir mahkama va idoralar uchun bunday ma'lumotlarni olishning samarali usulidir. Davlatlarning konsullik xizmatlari mamlakatga kiritmaslik shart bo`lgan shaxslar toifasidan iborat «qora ro`yxat»ni, shuningdek, turizm qoidalarini suiste'mol qiluvchi firmalar ro`yxatini tuzishda faollik ko`rsatadilar. Turizmning eng asosiy iqtisodiy tamoyilini eslatib o'tamiz. Turist turistik markazga kelishi, turistik xizmat, ish va tovarni sotib olishi hamda belgilangan muddatda mamlakatdan chiqib ketishi lozim. U qanchalik ko`p pul qoldirib, qanchalik tez chiqib ketsa shunchalik yaxshi. Turist - turistik markazdan pul olib ketishi emas, balki unga pul olib kelishi, mahalliy aholining ish joyini egallab olmasdan, aynan uning uchun ish o`rni yaratishi lozim. Turistik resurslar turistik markazga pul va shuhrat olib kelmog`i lozim.

Turizm birinchi navbatda turistlarning dam olishi va davolanishini ko`zlaydi. Bu juda muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday tejamkor xo`jayin xodimining (umuman olganda jamiyat a'zosi, mamlakat fuqarosining) mehnatini qadrlaydi, sog`lom bo`lishi va jamiyat uchun foyda keltiruvchi shaxsga aylantirishni istaydi. Sog`lom bo`lmagan fuqarolar samarali ishlay olmaydi. Ular soliqlarni samarali to`lay olmasligi va hazina to`ldirishga hissa qo`sha olmasligi mumkin. Demak, insonlarga dam olish, jismoniy va ma'naviy kuch to`plash imkonini berish lozim. O`zini hurmat qilgan davlat fuqarolari sog`lig`i haqida g`amxurlik qiladi va tegishli sharoitlarni yaratadi.

O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida: yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqtি va haq to`lanadigan mehnat ta'tilining muddati qonun bilan belgilanadi (38 - modda); har kim qariganda, mehnat layoqatini yo`qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo`lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy taminot olish huquqiga ega (39 - modda); har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega (40 - modda), - deyiladi.

Shunga o`xshash qonun va qoidalar aksariyat davlatlarning bosh qomuslarida, shuningdek, xalqaro kelishuv va Konvensiyalarda ham belgilab qo`yilgan. Masalan, «Turizm hartiysi»da (1985 y. JTT) : har bir shaxsning dam olish huquqi, jumladan, cheklangan ish vaqtি va pul to`lanuvchi mehnat ta'tili, shuningdek, qonunda belgilab ko`yilganlardan tashqari barcha hollarda hech qanday cheklovsiz erkin harakatlanish huquqi butun jahonda tan olinadi, - deb belgilab qo`yilgan.

Har bir davlat o`z tabiiy va boshqa turdagи resurslariga egalik qiladi va ulardan oqilona foydalanadi. Turli mamlakatlar iqtisodiyotida foydalaniuvchi turli xil foydali qazilmalar hamda tirik resurslar mavjud.

Fors ko`rfazi davlatlari neft hisobiga boy - badavlat kun kechiradi. Lekin, shunga qaramay Birlashgan Arab Amirliklari mintaqada eng muhim turistik markaz hisoblanadi. Turizm oltinga cho`milayotgan mamlakatlarda neft qazib olish tarmoqlari bilan muvaffaqiyatli raqobatlashmokda. Bugungi kunda bu mamlakatlarni mintaqadagi yirik turizm markaziga aylantirish vazifasi turibdi. Tabiiy - iqlim, tarixiy - madaniy resurslar turizmda asosiy ob'ektlar hisoblanadi. Toza ob - havoli joyda ekoturizm, Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent kabi shaharlarda tarixiy turizmni rivojlantirish uchun turistik resurslardan maqsadli foydalanish lozim.

Turizm davlatlarning ijtimoiy, madaniy va ta'lif sohalariga sezilarli ta'sir ko`rsatadi. Xalqaro aloqalarga hamda alohida shaxslar va butun jamiyatning orzu - umidlarini hurmat qilish vaadolatga asoslangan tinchlikparvarlik doirasida, turizm insonlarning bir - birini o`rganishi va tushunishining ijobiy va doimiy omili, shuningdek, xalqlar o`rtasidagi hurmat va ishonchning yanada yuqori darajasiga erishishi uchun asos bo`lib xizmat qiladi.

Zamonaviy turizm mehnatkashlarga haq to`lanadigan yillik ta'til berilishini nazarda tutuvchi ijtimoiy siyosatning mahsuli sifatida yuzaga keldi, bu esa ayni paytda dam olishga bo`lgan huquqning e'tirofi hamdir. Turizm ijtimoiy tenglik, kishilar va xalqlar o`rtasidagi hamjihatlik va shaxs kamolotining omiliga aylandi. Uning madaniy va ma'naviy mazmun - mohiyati ulkandir. Aynan turizm inson ongi erishgan yutuqlar haqida ma'lumot olish va ular bilan tanishish vositasi bo`lib,

xalqlarning tarixiy va madaniy qadriyatlaridan bahramond bo`lish imkonini beradi. Amalda turizmning ma'naviy mohiyati iqtisodiy va moddiy mezonlardan ustun bo`lishi va inson shaxsining har tomonlama uyg`un kamol topishiga yordam berishi, ta'lim - tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lishi, turmush tarzi va hayotini belgilashida teng huquqni ta'minlashi lozim. Bu jarayonni esa uning qadri va shaxsini hurmat qilish, xalqlarning o`ziga xos madaniyati va axloqiy qadriyatlarini tan olish,- deb bilish darkor. Shunday qilib, tarixiy, madaniy va diniy qadamjolarni har qanday vaziyatlarda, ayniqsa ziddiyatlar vujudga kelganda himoya qilish davlatlar va jahon hamjamiatining eng muhim vazifalaridan biri bo`lmog`i lozim.

Amalda yuqorida keltirilgan maqsadlar o`zaro qo`silib, bir - birini to`ldirishi mumkin. Chunonchi, Iso payg`ambar tavalludiga bag`ishlangan yubiley tantanalari ko`p maqsadlarni ko`zlagan. Ularning eng muhimi - konfessiya tantanasi va uning doirasida o`tkazilgan bayramdir. Bu albatta, umuman olganda dinning juda kuchli targ`ibotidir. Keyingi maqsadlar esa soddaroq. Tantanalar barcha qadamjolar, birinchi galda, xristianlar (hech bo`limganda, katoliklar) dunyosi poytaxti bo`lmish Rim va ushbu dindagilar tomonidan "Muqaddas Yer", - deb tan olingan tomon ko`plab ziyyoratchilar oqimini keltirib chiqarishi kerak bo`lgan. Buning uchun esa Vatikan tantanalar va turli martabadagi ziyyoratchilarni qabul qilish maksadida Rimni obodonlashtirishga katta mablag` ajratdi. Xar yili Italiyaga, xususan, Rimga millionlab turistlarning ziyyarat uchun yoki diniy, madaniy - tarixiy maqsadlarni ko`zlab kelishlari kutiladi.

Bu muammoga Isroilning ham qiziqlishi katta, chunki uning hududida xristianlarning "Muqaddas ziyyoratgoh"lari, ibodatxonalarini va boshqa sig`inadigan joylari bor. Chunonchi, EL AL milliy Isroil aviakompaniyasi Vatikan bilan yubiley tantanalari yilda 7 million ziyyoratchini tashish haqida bitim imzoladi. Bu esa jiddiy iqtisodiy yutuqdir. Bu raqam 1997 - yilda Isroilga kelgan turistlar sonidan roppa - rosa ikki baravar ko`pdir. Yubiley yilda ziyyoratchilarni qabo'l qilishga jiddiy tayyorgarlik ko`rildi, mehmonxonalar qurildi, turizm sohasidagi barcha korxonalar ishga shay qilindi, bularning barchasini davlat nazorat qilmoqda. Isroil uchun turizm - iqtisodiyotning eng muhim sohasidir. Ayni paytda Yaqin Sharq mintaqasi o`ta

notinch bo`lib, doimo mintaqaviy ziddiyatlar kelib chiqmoqda, mahalliy urushlar esa, qisqa muddatli bo`sada, turizm sohasidagi ulkan sa'y - harakatlar, keng miqyosli tadbirdarga sarflangan katta kapitallarni yo`qqa chiqarishi mumkin. Shu bois, siyosatchilarning vazifasi - mintaqada barqarorlikni ta'minlash, harbiy mojarov va terrorizmga yo`l qo`ymaslikdir. Aks holda soliq to`lovchilar mablag`lari zoe ketadi. Turizm maqsadlari ijtimoiy axloq va tartib talablariga javob berishi kerak. Bu toifalarni tushunish qiyin, chunki, ko`plab davlatlar qonunchiligida adolat bilan aytganda bunday kategoriylar yo`q. Ammo, xalqaro huquq va rivojlangan davlatlar qonunchiligida "yaxshi tartib", "aqli kishi", "oqilona miqdor", "oqilona foyda"; "ijtimoiy ahloq" kabi tushunchalar mavjud va tushunarli bo`lishi bilan birga, ular huquq me'yorlarida muayyan o`rin ham tutadi.

Turizm - aksariyat davlatlar iqtisodiyotining muhim hamda ustuvor tarkibiy qismi bo`lib, mahalliy aholining ish bilan bandligi, mehmonxonalar, restoran va tomoshagohlarning to`liq ishlashi, xorij valyutasining mamlakatga kirib kelishini ta'minlaydi. Shu bois, ko`plab mamlakatlar turizm soxasiga katta e'tibor bilan qaraydilar. Masalan, Fransiyada hukumat yig`ilishlari vaqtida turizm vaziri bosh vazirning o`ng tomonidan joy oladi. Fransiyaning Evropadagi birinchi raqamli turistik hudud ekanligi va Parij shahrini turizm hisobiga yashab, "Turistik Makka" - deb nom olishi boshqa mamlakatlar havas qilsa arzигулек holdir. Meksika prezidenti esa yirik xalqaro turistik ko`rgazmalarni shaxsan o`zi ochib beradi. Bunday misollarni yana ko`plab davom ettirish mumkin.

Turizmning ichki iqtisodiy tabiat shuni ko`zda tutadiki, turist albatta o`z pullarini mazkur davlatda qoldirishi kerak. Turizm mahalliy turistik resurslarni ekspluatatsiya qilishga va buning evaziga davlatning foyda olishiga asoslanadi. Shuning uchun turist o`zi kelgan mamlakatdagi har qanday manbaadan foyda olishga haqli emas. Ishchi kuchi oqimining chekhanishi muammosi davlat immigratsiya (kirib keluvchilar) xizmatlarini tashvishga solgani bois odatda faqat keskin ishchi kuchi etishmasligi, mahalliy ishchi resurslarining taqchilligi va muayyan og`ir ishlarni (masalan, o`ta og`ir, zararli, iflos va shu kabi) bajara oladigan kerakli malakali mutaxassislarga talab bo`lgandagina chetdan ishchilarni

yollashga ruhsat beradi. Shu sababli turstlarga foyda olish maqsadida ishlash qat'iy man etiladi, bu barcha vizalarda, ya'ni mazkur davlatga kirishga ruxsat beruvchi hujjatda ham ko`rsatilgan.

1.2 Mavsumiylikning turizmni rivojlantirish va uning samaradorligiga ta'siri, rejalashtirishda uni hisobga olish

Iqtisodiy nuqtai nazardan mavsumiylik bir xildagi iqlimiylar omillar ta'siri ostida turistik xizmatlar va tovarlarga turistik bozordagi talab va taklifning har yili tebranib turishidir. Mavsum – turistlar oqimining eng ko‘paygan vaqtidir. Ikki mavsum mavjud bo‘lganda (yozgi va qishki) ular orasida mavsumlararo vaqt bo‘ladi. Turistlar oqimining eng ko‘paygan vaqt «qizg‘in mavsum», ular deyarli bo‘lmagan vaqt «o‘lik mavsum» deyiladi.

Turizm rivojlanishiga ta`sir etuvchi omillar 2 guruhga bo’linadi.

1. Ichki omillar
2. Tashqi omillar

Ichki omillarga umuman turizm bilan bog`liq bo’lgan sohalardagi o’zgarishlar, ya’ni Mehmonxona, Restoran, transport, turizm reklamasi, turfirmalar, turistlarga taqdim etilishi mumkin bo’lgan xizmatlar sifatining darajasi kiradi. Bundagi kamchiliklarni mamlakatning o’zi o’zgartirib, ta`sir eta oladi.

Tashqi omillarga esa, mamlakat ta`sir o’tkaza olmaydigan, turizmga uncha aloqasi bo‘lmagan, lekin turizmga bevosita tashqaridan ta`sir o’tkaza oladigan omillar kiradi. Masalan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik omillar kiradi. Mavsumiylikning ta’sirini aniqlash uchun mavsumiylik koeffitsienti qo’llaniladi, u quyidagi nisbat bilan belgilanadi

$$\mathbf{K}_m \mathbf{q} = \frac{\mathbf{J}\mathbf{K}_1}{\mathbf{J}\mathbf{K}_2}$$

bu yerda JK₁, JK₂ – tegishlicha mavsum va mavsumlararo vaqt ichidagi joy-kunlar soni. K_mq1,0–1,5 kattaligi bilan oz ifodalangan mavsumiylik, K_mq1,5–2,5 – o‘rtacha ifodalangan mavsumiylik, K_mq 2,5–5,0 – kuchli ifodalangan mavsumiylik tavsiflanadi. K_m qanchalik katta bo‘lsa, turizm korxonalari ishining iqtisodiy ko‘rsatkichlari shunchalik kichik bo‘ladi, kuchli ifodalangan mavsumiylikda bu korxonalar chiqimga uchrashi mumkin. Turistik korxonalarning iqtisodiy ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sirni kamaytirish maqsadida mavsumiy tebranishlarni cheklash bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqiladi va joriy qilinadi.

Mavsumiylik asosan iqlimiylar va ijtimoiy tusdagi omillardan kelib chiqib belgilanadi. Iqlimiylar shu bilan bog‘langanki, dunyoning ko‘plab rayonlarida, jumladan O‘zbekistonda ham sayohatlar, dam olish, sport bilan shug‘ullanish uchun ob-havo sharoitlari oylar bo‘yicha bir xil emas. Shuning uchun odamlar yilning ob-havo eng qulay bo‘lgan vaqtlarida ta’til olishga harakat qiladilar.

Dengiz, tog‘lar, o‘rmonlarda dam olishda aynan iqlim turistik mavsumning eng maqbul o‘lchamlarini (parametr) belgilab beradi. Turizmning boshqa turlari uchun u borib-kelishlar va turistik resurslardan foydalanish tekisligini cheklovchi muvofiqlashtiruvchi vazifasini o‘taydi. Talablarning bir joyda jamlanishiga ta’tillardan jamoa bo‘lib foydalanish katta ta’sir ko‘rsatadi. Frantsiya va Shveysariyadagi ba’zi korxonalar yozgi dam olish davrlarida (odatda har yil avgustning o‘rtalaridan boshlab) umuman ishni to‘xtatishadi va butun jamoa ta’tilga chiqib ketadi.

Shu narsani nazarda tutish zarurki, maktabdagi yozgi kanikullarning katta qismi ham yoz paytiga to‘g‘ri keladi, bu ham turistlarga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq muammolarni keskinlashtiradi. Turistlar oqimining bir joyda jamlanishiga ta’sir qiluvchi boshqa omillar ham (an’anada, moda, taqlid qilish) mavjud. Ularni ko‘pincha irratsional omillar ham deb atashadi, chunki ular na tabiiy-iqlimiylar, na ijtimoiy-iqtisodiy sabablar tufayli kelib chiqmagan. Taqlid qilish va moda mavsumiylikka quyidagi tarzda ta’sir etadi. Turistik oqimning yangi

ishtirokchilari alohida mamlakatlar va rayonlardagi dam olish sharoitlarini bilmagan holda bu joylarni asosan psixologik sabablarga ko‘ra tanlaydilar. Ular tajribali turistlar yoki mashhur shaxslar dam olishga ketayotgan vaqtini tanlaydilar.

Yangi turist sifatida tajribaga ega bo‘lganlaridan keyingina ular o‘zlarini uchun eng ma’qul sayohat vaqtini tanlaydilar.

Mavsumiylikka oid noqulay ta’sirlar turistik jarayonning barcha tashkil qiluvchilariga – resurslar, joylashtirish vositalari, oziq-ovqat, transport, shuningdek xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar va turistlarning o‘zlariga ham taalluqlidir.

Qisqa turistik mavsum faqat plyajlar, mineral suvlar, qimmatbaho turistik infrastruktura va malakali xodimlarning xizmatlaridan qisman foydalanishga sabab bo‘ladi, xolos. Bu kadrlarning qo‘nimsizligini keltirib chiqaradi, ko‘p xodimlarning o‘z malakasini oshrishga qiziqishini kamaytiradi.

Xizmat ko‘rsatuvchi xodimlardan yil davomida faqat bir necha oy foydalanish turistik tovarlar va xizmatlarning tannarxidagi shartli-doimiy xarajatlarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Bu esa moslashuvchan narxlar siyosatini o‘tkazish imkoniyatini kamaytiradi, turistik tashkilotning xalqaro bozordagi harakatini qiyinlashtiradi, uning raqobatbardoshligini yomonlashtiradi.

Mavsumiylik dam olish joyiga boradigan yo‘llarda transport vositalarining to‘planib qolishiga olib keladi, bunday holda xizmat ko‘rsatish qulayligi va sifati pasayadi, turizmga xizmat ko‘rsatuvchi transport, sanoat va qishloq xo‘jaligi korxonalarining ishidagi bir maromlilik buziladi.

Hukumat organlari va turistik firmalar turizmdagi mavsumiylik omilining salbiy ta’sirini kamaytirishga doimiy ravishda kuch-g‘ayratlarini sarflab keladilar: o‘quv yurtlarida imtihonlarni topshirish muddatlarining o‘zgartirilishi, ta’tillar (asosiy va qo‘sishimcha) tuzilishidagi o‘zgarishlar, haq to‘lanadigan ta’tillardan foydalanish vaqtiga nisbatan rasmiy cheklashlar, ta’lim olayotgan yoshlarning kanikullarining davomiyligi va vaqtini.

Umuman mamlakat bo‘ylab va alohida turistik komplekslarda turistik mavsumning chegaralarini kengaytirish bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqiladi va joriy qilinadi. Ular quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi.

1. Turistik bozorni tadqiq qilish natijalari. Bunda asosiy mavsumdan tashqari jalb qilinishi mumkin bo‘lgan potentsial mijozlar soni va tarkibi aniqlanadi (ishbilarmon odamlar, pensionerlar, maxsus qiziqishga ega odamlar va sh.k.); tovarlar v xizmatlar taqdim etishga oid so‘rovlar o‘rganib chiqiladi. Olingan axborotdan mehmonxonalar v restoranlarning moddiy-texnika bazasini yangilash, tegishli tovarlarni etkazib berish, turistlarga xizmat ko‘rsatish sifatini va uni tashkillashtirishni takomillashtirish.

2. Umuman mamlakat, rayonlar va turistik komplekslar bo‘yicha yil davomida turistlarni qabul qilishga tayyorgarlikni oshirish bo‘yicha tadbirlar. Mavsumiy davrni uzaytirish bo‘yicha barcha manfaatdor tashkilotlar o‘rtasida muvofiqlashtirish amalga oshirish nazarda tutiladi; turizm moddiy-texnika bazasi mavsumlar oralig‘ida ishlashga moslashtiriladi va h.k.

3. Turistlarning mamlakatga va alohida turizm rayonlariga qiziqishini oshirish maqsadida ularni iqtisodiy rag‘batlantirish tizimi. Alohida tovarlar va xizmatlarga narxlar kamaytiriladi, chegirmalar qilinadi, turistik tashkilotlarning mavsum oralig‘idagi vaqtida faolligi uchun mukofotlar, rag‘batlantirishlar beriladi.

4. Mavsumlar oralig‘ida turistlarni jab qilish uchun reklama faoliyatini kengaytirish. Alohida dengiz, tog‘ va balneologik markazlar va ularda yilning turli davrlarida bo‘lishning foydaliligi tashviq qilinadi.

5. Mavsumdan tashqari vaqtida turistlarni jalb qilish yoki qo‘srimcha mavsum (qishki) tashkil qilish. Turar joy va transportga baholar pasaytirilishi, arzonroq joylashishi ob‘ektlarini ko‘proq qurish evaziga yashash fondini kegaytirish. Masalan, bunday tadbirlarni amalga oshirishi Shveytsariya va Avstriya uchun Alp tog‘larida qishki sport evaziga ikkinchi «qizg‘in mavsum»ni tashkil qilish imkonini berdi. BMT ma’lumotlariga qaraganda, qishda dam olishni

xohlovchi turistlar soni har yetti yildan keyin ikki barobar ko‘payadi. Turli sport musobaqalari, festivallar, konkurslar, ko‘rgazmalar, ilmiy konferentsiyalar, kongresslar va sh.k.larni tashkil qilish ham turistik mavsumni kengaytirishga ko‘maklashadi. Shuning uchun bunday tadbirlarni iloji boricha turistlar uchun mavsum oralig‘ida o‘tkazgan ma’qul. Mavsumiylikning turistik faoliyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha tadbirlarni rejalshtirish uchun keyingi yillarda rejalshtirilayotgan choralarining natijalarini baholash maqsadida turli metodlar va modellar keng qo‘llanilmoqda.

II BOB. O'ZBEKISTON TURIZMIDA MAVSUMIYLIK MUAMMOSI **VA UNI YUMSHATISH YO'NALISHLARI**

2.1. Turizmning yangi yo'nalishlarini tashkil qilish orqali mavsumiylik muammosini yumshatishga erishish (Bo'rontepa" arxeologik yodgorligidagi "Oazis Safari" misolida)

O'zbekiston turizmida mavsumiylikni ahamiyati anchagina pasaygan uning uchun ancha ishlar olib borilmoqda bularga misol qilib turistik erkin iqtisodiy zonalarning ochilayotganini misol qilshimiz mumkin. Qolaversa yaqin kunlarda turistlar uchun ancha qulayliklar yaratilishi kutilmoqda masalan; Ayraportlarda yashil yolaklar tashkil etish ko'zda tutilgan. Agarda shu ish amalga oshiriladigan bo'lsa turistlarning vaqtি tejalib ularga qulayliklar yaratiladi. O'zbekistonda asosan madaniy turizm juda yaxshi rivojlangan bo'lib tashrif buyuruvchi turislarning asosiy qismi qariyalar bo'lgani sababli 50 yoshdan oshgan turistlarga vizasiz sayohat qilish ko'zda tutilgan. Shu sababli qanchadan-qancha tarixiy obidalar qaytadan tamirlandi.


Xususan, Romitan tuman hokimining 2018 yil 13 apreldagi 865-sonli "Safari Vogue" MChJga "Marziya" MFY Bo'rontepa hududidan "Turizm infratuzilmasi kompleksi ob'ekti" binolarini loyihalashtirib qurish uchun doimiy foydalanishga jami 250 hektar er maydoni ajratib berish to'g'risidagi qarori qabul qilinganligi sayyoхlar uchun yana bir yangi turistik yo'nalish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Buxoro viloyatining Romitan tumanida joylashgan "Bo'rontepa" arxeologik yodgorligida yangi tashkil etilgan turistik yo'nalish - "Oazis Safari"da mahalliy va xorijiy sayyoхlar tomonidan tuya va otlarda sayr qilish madaniy hordiq chiqarishi uchun ular soni kun sayin ortib bormoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning yurtimizda turizmni jadal rivojlantirishga qaratilgan 20 dan ortiq muhim Farmon va qarorlari asosida yaratilgan imkoniyatlar natijasida Buxoro viloyatida ham 2018 yilning yakunlariga ko'ra, ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

Xususan, Buxoro viloyatiga tashrif buyurgan sayyoohlar 2,5 mln. nafarga etib, o'tgan yil shu davriga (1,2 mln.) nisbatan, 1,9 baravarga ko'paydi. Bunda, xorijiy turistlar soni 301,5 ming nafarni tashkil etib, mos ravishda (169,0 ming.) 1,8 martaga ortdi.

(1-diagramma)



Manba: Buxoro viloyati Turizmni rivojlantirish departamenti.

Xorijiy turistlarga yanada qulaylik yaratish maqsadida 2018 yil 1 iyuldan mehmonxonalar, muzeylar, kafe-restoran, savdo shahobchalari va boshqa ob'ektlarda xorijiy valyuta hamda xalqaro plastik kartalardan to'lovlarni ham milliy ham xorijiy valyutani qabul qilish bo'yicha maxsus dastur yo'lga qo'yildi. Jumladan:

Viloyat bo'yicha jami 65 ta, shundan: Buxoro xalqaro aeroporti, Temir yo'l vokzali, sobiq "Shaxriston" bozori hududlari, "Aziya Buxara" va "Buxara Grand" mehmonxonalarida 1 tadan, "Labi-hovuz" ansamblida 2 ta joyda valyuta ayirboshlash shahobchalari ishga tushirildi.

Xalqaro plastik kartalarga xizmat ko'rsatuvchi jami 20 ta bankomat qo'yildi (Mehmonxonalarda 9 ta, restoranda 1 ta, aeroportda 1 ta, temir yo'l

vokzalida

1 ta, “Moxi-xosa” majmuasida 1 ta, “Labi xovuz” ansamblida 2 ta, tijorat banklarida 3 ta va boshqa joylarda 2 ta).

Hunarmandlar, savdo va maishiy xizmat ob'ektlarida xalqaro to'lov kartalarini qabul qiluvchi 298 ta terminallar o'rnatildi (tijorat banklari binosida 104 ta, mehmonxonalarda 93 ta, umumiyligda ovqatlanish korxonalarida 15 ta, hunarmandlarda 68 ta va boshqa joylarda 18 ta).

Markaziy bankning viloyat boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, ushbu tadbirlar xorijiy turistlardan sof xorijiy valyuta tushumi jami 41,9 mln.AQSh dollari (bankomatlar orqali 5,5 mln. doll., to'lov terminallaridan 10,0 mln.doll., valyuta almashtirish shaxobchalaridan 23,0 mln.doll.)ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga (11,8 mln.doll) nisbatan 3,5 baravarga ko'payishini ta'minlagan.


O'z ornida, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi hisoblash usuli bo'yicha har bir turistdan qolayotgan o'rtacha tushum (410 AQSh doll)ni e'tiborga olganda, Buxoroga tashrif buyurgan jami xorijiy turistlardan tushum miqdori (turistik kompaniyalar tomonidan bajarilgan to'lovlarni ham hisobga olganda) 123,6 mln.AQSh dollari ekvivalentini tashkil etadi.

Viloyatda turizm sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda ishlar olib borilmoqda. Xususan:

Xorijiy turistlar oqimini kengaytirish yo'nalishida.

Qayd etilganidek, 2019 yilning 1 yanvar holatiga viloyatga jami 301,5 mingdan ortiq xorijiy sayyoohlar tashrif buyurdi.

Tahlillarga ko'ra, xorijiy turistlarning katta qismi Evropa davlatlari (57%), Osiyo davlatlari (24%), MDH (13%) va qolgan davlatlar (9%) hissasiga to'g'ri keladi.



Manba: Buxoro viloyati Turizmni rivojlantirish departamenti.

Viloyatning turizm salohiyatini kengroq targ’ib qilish maqsadida turizm sohasi vakillari Tokio, Parij, Kuala-Lumpur, Izmir, Istambul, Madrid, Sankt-Peterburg va Astana shaharlarida o’tkazilgan xalqaro turistik ko’rgazmalarda ishtirok etishdi. Bu tadbirlarda jami 36,3 ming, jumladan Franstiyadan 12 ming, Turkiyadan 10 ming, Malayziyadan 7 ming, Ispaniyadan 2,5 ming, Rossiyadan 3,0 ming, Qozog’istondan 1,8 mingga yaqin turistlarni jalb qilish bo’yicha bitimlar tuzildi.

Shu bilan bir qatorda 2018 yilning 12-18 noyabr kunlari viloyat delegasiya a’zolari va bir qator turistik korxona rahbarlari Rossianing Novosibirsk, Ekaterinburg, Ufa va Kazan shaharlarida viloyatning investition salohiyati bo’yicha Ufa tashqi iqtisodiy aloqalar qo’mitasi vakillari bilan samarali muzokaralar olib borildi.

Ta’kidlash joizki O’zbekistonning bir qator turistik tashkilotlari tomonidan 450 ga yaqin tarqatma materiallari tarqatildi. Hamda B2B uchrashuvlarda ikki

mamlakat sayyohlik tashkilotlari o'rtasida 40 dan ortiq shartnomalar va memorandumlar imzolanishga erishildi.

2018 yilning o'tgan davrida viloyatga 148 ta rasmiy xorijiy delegasiyalar (Hukumat darajasida – 30 ta, turizm sohasiga oid – 61 ta, ishbilarmonlik yo'nalishida – 32 ta, ilmiy-madaniy sohada – 13 ta, boshqa masalalarda – 12 ta) tashrifi amalga oshirildi;

Buxoroga Indoneziya, Malayziya, Isroil, Xitoy (Loyan), Franstiya aviakompaniyalari orqali, shuningdek Turkiyaning “Turkish aerlays” va “Pegasus” aviakompaniyalari bilan to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish bo'yicha muzokaralar olib borildi.

Buxoro xalqaro aeroportiga to'g'ridan-to'g'ri qatnovlarni yo'lga qo'yish uchun Turkiyaning “Onur air” aviakompaniyasi va Buxoro viloyati hokimligi o'rtasida qo'shma korxona ochish bo'yicha memorandum imzolandi hamda bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga murojaat kiritildi.

2018 yilda Buxoro xalqaro aeroporti orqali jami 2315 ta reyslar (shundan 1178 ta jo'natilgan, 1137 qabul qilingan) orqali 228 074 ta yo'lovchilarga (shundan 111 653 ta jo'natilgan, 117 051 qabul qilingan) xizmat ko'rsatilgan. Shu bilan birga, 2018 yilda xalqaro yo'lovchilarga ko'rsatilgan xizmatlari 2017 yilga nisbatan 1,1 martaga, MDH davlatlari yo'lovichlariga 1,2 martaga va mahalliy yo'lovchilarga 1,1 martaga ko'pni tashkil etgan.

Sayyoohlar uchun yanada qulaylik yaratish masqadida Buxoro xalqaro aeroportida boj olinmaydigan savdo do'konlari (Duty free) faoliyati yo'lga qo'yildi. Turistlar oqimini ortishi munosabati bilan O'zbekiston temir yo'llari kompaniyasi bilan hamkorlikda Farg'ona, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlaridan temir yo'l poezdlar qatnovlari yo'lga qo'yildi.

Xorijdan 30 ta yangi zamonaviy turistik avtobus va 22 ta mikroavtobus keltirildi. “Afrosiyob” tezyurar poezdining qatnov jadvallari optimallashtirildi.

Bundan tashqari, “Buxoro konsalting servis” MChJ tomonidan sayyoohlarga qulaylik yaratish maqsadida qisqa “1052” telefon raqami orqali yo'nalishsiz taksi

xizmatiga buyurtma berish tashkil etildi. Mazkur yo'nalishsiz taksilar "O'zbekiston" turizm logotiplari bilan jihozlangan bo'lib haydovchilari ko'p yillik tajribaga ega. Kirish turizmi, Respublikaning xorijdagi vakolatxonalari bilan hamkorlikda investistiya, turistlar oqimi va eksportni ko'paytirish yo'nalishda Prezidentimizning 2018 yil 6 fevraldaggi PQ-3509-sonli "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga muvofiq 10 ta davlat (Yaponiya, Koreya, Singapur, Indoneziya, Malayziya, Turkiya, Isroil, Franstiya, Tojikiston, Franstiya) fuqarolari uchun vizasiz (30 kungacha) kirish tartibi, 39 ta mamlakat bilan viza olish jarayoni engillashgani hamda 101 ta mamlakat fuqarolarining uchinchi davlatga borishida O'zbekistonda 5 kungacha vizasiz bo'lish imkoniyati yaratilganligi Buxoroda ham turistlar oqimini keskin ko'payishiga olib kelmoqda. O'tgan davr mobaynida Buxoroda xorijiy sayohlarning mehmonxonalardagi joylarni band qilish darajasi 100 foizga yetgan va sayohat qilishga qiziquvchilar soni bir necha martaga ortgan.

Ayniqsa, Franstiya fuqarolari uchun vizasiz kirish tartibi joriy etilganligi, istiqbolda bu mamlakatdan yurtimizga keluvchi sayyoohlarning yanada ko'payishiga olib keladi. Tahlillar bo'yicha o'tgan 2018 yilda Franstiyadan O'zbekistonga tashrif buyurgan 13,6 mingdan ortiq sayyohning 10,4 ming (82%)ga yaqini Buxoroda 2 sutkadan ortiq bo'lган.

O'zbekiston Respublikasining 15 mamlakatdagi (Xitoy, Isroil, Indoneziya, Malayziya, Pokiston, Qozog'iston, Quvayt, Misr, Eron, Saudiya Arabistoni, BAA, Hindiston, Afg'oniston, Ozarbayjon, Turkmaniston) elchilari bilan 2018 yil yanvar oyida Buxoro viloyatida uchrashuvlar tashkil etilib, ularga hududning turistik (ziyorat turizm) va investition salohiyati taqdimot qilindi.

Buxoroning turistik salohiyati elektron ma'lumotlari, videorolik va taqdimot materiallari elchixonalarga etkazildi. Buxoro viloyati delegasiyasining Xitoy, Koreya, Franstiya, Indoneziya, Isroil, Turkiya, Belgiya, Gollandiya, Rossiya, Qozog'iston va Evropa mamlakatlariga xizmat safarlari tashkil etildi.

Viloyat hokimligi tomonidan Belgiyaning mashhur va dunyoning 17 ta davlatida vakolatxonalari hamda 20 mln.ga yaqin sayyoh mijozlari bo'lgan "Thomas Cook", Franstiyaning Turizm agentligi va "Ile de France Paris", Indoneziyaning "ASITA" (turistik agentliklari assostiastiyasi), Turkiyaning "Tursab" (Turkiya sayohat agentliklari birlashmasi), Turkiya gostronomik turizmi Assostiastiyasi, Malayziyaning "MATTA" (turistik agentliklari assostiastiyasi), Belorussiyaning "PBC-Kypopt" kabi yirik turistik agentligining tashkilotlar rahbarlari bilan uchrashilib, o'zaro hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi.

"Buxoro Palas" mehmonxona majmuasi Buyuk Britaniya investisiyasi asosida tashkil etilgan "Wide Tent System" akstionerlik jamiyatiga sotildi.

Buxoro shahrining G'ijduvon hamda Gazli ko'chalari kesishmasidan Hindistoning "METRIC VENTURES" MChJga mehmonxona va dam olish maskani qurilishi uchun 2.75 hektar er uchastkasi ajratilib, loyihalash ishlari yakunlanmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagagi PQ-3217-sonli "2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan viloyatda turizm sohasiga investorlarni jalb qilish bo'yicha Buxoro shahridagi sobiq "Zarafshon" mehmonxonasi Xitoy sarmoyalari ishtirokidagi "Beston Machinery" MChJga mehmonxona tashkil etish maqsadida investisiya kiritish sharti bilan "nol" qiymatda sotildi.

Buxoro shahar Afrosiyob ko'chasida joylashgan "Suv quvuri" minorasi franstiyalik Catherine Uiterdijk hamda Teunis Uiterdijk hamkorlar bilan 125 ming AQSh dollari investisiya kiritish sharti bilan "Authentic Travel" MChJga uzoq muddatli ijaraga foydalanish uchun berildi. Hozirda ushbu ob'ektda ta'mirlash ishlari yakunlanmoqda.

Shuningdek, Buxoro shahrining Shahriston bozori hududida yopiq hunarmandlar va sayyoohlар uchun "shopping" markazi loyihasini amalga oshirish

uchun Turkiyaning "Iris engineering, Tourism and trade company"ga berish bo'yicha hukumat loyihasi tayyorlandi.

Turistlar tashrif buyuradigan infratuzilma, yo'l bo'yi, madaniy-diniy ob'ektlar, mehmonxonalar, motellar, dam olish maskanlari, sanitар-gigienik uzellarni yaxshilash, turistik zonalarni barpo etish orqali kirish, ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish, aholining respublika bo'ylab sayohatlarini tashkil etish yo'nalishida.

Ayni paytda, Buxoro viloyatida 223 ta joylashtirish vositasi (xonalar soni 2522 ta, o'rinalar soni 5592 ta) sayyoohlarga xizmat ko'rsatib kelmoqda.

Viloyat miqyosida jami 41 ta, jumladan Buxoro shahrida 34 ta joyda yangi mehmonxonalar barpo qilish uchun jami 10,7 hektar er uchastkalari ajratilib, loyihalash va qurilish ishlari boshlandi. Ularning 1 tasi Hindiston davlati investorlari tomonidan quriladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018 yil 30 sentyabr 1 oktyabr kunlari Hindistonga davlat tashrifi jarayonida tashkil etilgan "O'zbekiston - Hindiston" biznes forumi doirasida mazkur davlatning firma va kompaniyalari vakillari bilan o'tkazilgan muzokaralar bo'yicha Buxoro viloyatiga jami 48,5 mln. AQSh dollari qiymatida to'g'ridan - to'g'ri investisiyalarni jalb qilish yuzasidan kelishuvlarga erishildi. Jumladan, "S.C.S. Pvt.Ltd" kompaniyasi tomonidan 25,0 mln. AKSh dollari, "Orion Group" kompaniyasining 10 mln. AQSh dollari va "SRB International" kompaniyasining 5,0 mln. AKSh dollari qiymatida investisiya yo'naltirish hisobiga Buxoroda 4 yulduzli mehmonxona komplekslari qurish buyicha Buxoro viloyati xokimligi bilan kelishuv imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 26 avgustdagi 700-f sonli farmoyishiga asosan Toshkent shahrida 19-20 noyabr kunlari o'tkazilgan "Turizm sohasidagi birinchi xalqaro investition forum"ida Buxoro viloyati hokimligi va Turizmni rivojlantirish departamenti hamkorligida xorijiy va mahalliy investorlarga "tayyor holda" topshirish sharti

bilan 51 ta turizm sohasidagi ob'ektlarning ro'yxatlari, joylashuv xaritalari va ob'ekt haqida qisqacha ma'lumotni o'z ichiga olgan kataloglar tayyorlandi. Mazkur ko'rgazmada Xitoy Xalq Respublikasi, BAA va Eron davlati tadbirkorlari bilan jami 15,7 mln. AQSh dollariga teng 4 ta investition kelishuvlar imzolandi.

Xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar bilan olib borilgan muzokaralar natijasida Buxoro shahrida o'n yildan ortiq vaqt davomida ishlamay turgan 3 ta yirik "Buxoro-palas" (480 ta o'rinn), "Varaxsha" (410 ta o'rinn), "Zarafshon" (390 ta o'rinn) mehmonxonalari 2017 yilda investorlarga berilib, ularda rekonstrukstiya ishlari jadallik bilan olib borilmoqda.

2019 yilning 6 may kuni Sobiq Varaxsha mehmonxonasi negizida Orient Star Hotel mehmonxonasining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Ulug' qadamjolar hisoblangan "Etti pir" ziyoratgohlariga tutash hududlarda jami 7 ta mehmonhona qurish uchun talabgorlarga 1,7 hektar er uchastkalari ajratilib, qurilish ishlari davom etmoqda.

Ushbu qurilish va ta'mirlash ishlari yakuni bilan jami mehmonxonalar soni 169 taga (41 ta yangi), quvvati 8437 ta (4166 ta mavjud) o'ringa etkaziladi.

Buxoro shahriga tutashgan magistral yo'llar bo'ylab, 12 ta motel, jumladan: Turkmaniston yo'nalishida Jondor tumanida 2 ta, Qorako'l tumanida 1 ta, Olot tumanida 1 ta;

Xorazm yo'nalishida Romitan tumanida 1 ta, Peshko' tumanida 1 ta;
Samarqand yo'nalishida Buxoro tumanida 1 ta, Vobkent tumanida 1 ta, G'ijduvon tumanida 2 ta;

Qashqadaryo yo'nalishida Kogon tumanida 1 ta, Qorovulbozor tumanida 1 ta motellar qurish uchun er maydonlari dislokasiyalari belgilanib, 8 tasida qurilish ishlari boshlandi.

Viloyatda turistik kompaniyalar soni 56 taga (23 ta yangi), hamroh tarjimonlar soni esa 110 taga (45 ta yangi) etkazildi.

Ayni paytda, 10 ta park, 15 ta restoran qurish, G'ijduvon, Shofirkon va Romitan tumanlarining har birida 5 tadan, Buxoro shahrida 25 ta, Kogon shahrida

10 ta namunaviy loyiha asosidagi kichik mehmonxonalar tashkil etish bo'yicha er maydonlari ajratish bo'yicha grafiklar tasdiqlangan bo'lib, har oyda E-ijro.auksion savdolariga qo'yib kelinmoqda.

Shu bilan birga, turistlarni Buxoroda ko'proq qolishiga imkon yaratish maqsadida bugungi kunda sayohatchilar tashrif buyuradigan 105 ta madaniy meros ob'ektlarini yaxshilash va qo'shimcha 50 ta ob'ektga turistlar borishi uchun sharoitlar yaratish ishlari olib borilmoqda.

2.2. Turizmning agro-eko turizm yo'nalishlarini tashkil etish (Shofirkon tumanidagi "Afzal Polimer zamini" fermer xo'jaligi misolida)

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida turizmning milliy modelini shakllantirish jarayoni amalga oshirilmoqda. Ushbu modelda ta'kidlanishicha mamlakatda rivojlantirilayotgan turistik bozor boshqa har qanday bozorlar kabi mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatiga ta'sir ko'rsatadi. Umamlakatlar o'rtaсидаги hamkorlikni rivojlantirish hamda investitsiya va kapital oqimini ta'minlash darajalarini aniqlashda muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda, asosan, xususiy va tijorat kompaniyalari turistlarga xizmat ko'rsatadi. Biroq, har qanday sharoitda ham davlat optimal iqtisodiy va huquqiy zamanni yaratgan taqdirdagina turizm rivojlanishi mumkin. Agarda davlat kasbiy tayyogarlik masalalari, tabiiy va madaniy muhitni muhofaza etish, axborot-reklama ishlari va rasmiyatçilikni soddallashtirish kabilar bilan shug'ullanmasa, u holda turizm kutilganidek rivojlanish darajasiga erisha olmaydi. Bunda davlat tomonidan turizmni rivojlantirish, turistik xizmatlar bozorini shakllantirish, iqtisodiy tartibga solish usullari va richaglarini qayta isloh etish, turizmni tashkiliy boshqaruvi strukturalarini takomillashtirish, uning eksport salohiyatini oshirish va eng asosiysi, xorijiy investitsiyalarni jalg qilish kabilarga tegishli uslubiy va amaliy yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublika turizmidagi iqtisodiy ahvolni tahlil qilish uchun uning rivojlanishidagi ikki bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin:

1 bosqich 1986 yildan 1991 yilgacha bo'lган davr va 2-bosqich 1992 yildan keyingi davrni uz ichiga oladi. Bunday davrlarga bo'lish respublika turizm taraqqiyotidagi ikki eng muhim davrni ajratib olishga imkon beradi.

1-bosqichda turizm respublika kasaba uyushmasiga buysunar, uning bosh organi STREU - O'zbekiston Respublikasi turizm va ekskursiyalar bo'yicha Kengashi edi; bu davr turizm chora-tadbirlarini to'liq xo'jalik xisobi, uz-o'zini qoplash va uz-o'zini moliya bilan ta'minlashga o'tkazish bilan bog'liq bo'ldi. Ikkinchı davr esa O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi, "O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasining tashkil qilinishi va bozor munosabatlariga o'tish bilan 1991 yilda Respublikada turizm sohasida 87 korxona, muassasa va tashkilotlar mavjud bo'lib, 4234 o'rinnik 11 turizm kompleksi, 2928 o'rinnik 12 turizm bazasi va 599 o'rinnik 2 kemping faoliyat ko'rsatar edi.

Respublikada turizmni rivojlantirishda moddiy-texnik baza alohida ahamiyatga ega, u tashkiliy turizmni rivojlantirish va kompleks turizm-ekskursiya xizmati ko'rsatish: joylashtirish, oziq-ovqat bilan ta'minlash, ko'ngil ochish, davolash, ekskursiyalar o'tkazish va hokazolar uchun sharoit yaratib beradi.

O'zbekiston Respublikasi turizmida moddiy-texnik bazaning rivojlantirilishi bir necha bosqichdan iborat. Har bir bosqichning muddati va uning sifat tarkibi sobiq Ittifoqning ob'ektiv tarixiy va iqtisodiy shart-sharoitlariga bog'liq bo'ldi.

Respublika turizm salohiyatini baholovchi yana bir muhim ko'rsatkich - asosiy fondlarning moddiy elementlarini tashkil qilish va xarid qilishga ketgan pul xarajatlarining yig'indisidan iborat bo'lган kapital qo'yilmalar hajmidir. Respublika turizm tizimining o'z moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga sarflangan kapital qo'yilmalarning 1986-90 yillardagi umumiy hajmi 17345 ming so'mni tashkil qildi.

Bozor munosabatlariga o'tish butun respublika turizm tizimi oldiga anchagini keskin shartlar qo'ydi. Turizm tizimining jami tashkiliy-iqtisodiy strukturasini tubdan qayta tashkil qilish, turizmni boshqarishning markazlashtirilgan mexanizmdan farq qiluvchi amaliy iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish zarur edi

SHu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 28 iyuldagagi Farmoniga binoan "O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasi tashkil qilindi. Bu kompaniya O'zbekiston Respublikasi kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi, "Inturtaj" qo'shma korxonasi "Sayyoh-Intur" respublika xo'jalik xisobidagi birlashmasi va sobiq "Goskominturist" korxonalarasi asosida tashkil qilindi.

"O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasi bir necha yillik faoliyati davomida milliy va xalqaro turizmni qayta tiklash, moddiy-texnik va me'yoriy bazani mustahkamlash va kengaytirish, yangi turizm marshrutlarini ishlab chiqish, ekskursiya mavzularini yangilash, mavjud turizm baza va kempinglarini takomillashtirish va yangilarini tashkil qilish, qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish hajmini oshirish bo'yicha ma'lum miqdordagi ishlarni amalga oshirdi.

1992 yildayoq "O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasi tizimida 135 korxona bor bo'lib, ular ichida jami 10 ming o'rinnik 34 mehmonxona, turbazalar, kempinglar, motellar bor edi.

Qiymati asosiy fondlarning 1,6 mlrd so'mni tashkil qilar edi, ularning 79 foizi qurilganiga 15-20 yil bo'lgan bino va ishootlar edi. Aamlda barcha mehmonxonalar, turbaza va kempinglar kapital ta'mirlashga va rekonstruktsiyalashga muhtoj edi, ularning 40 foizi kam rentabelli va zarar ko'rayotgan korxonalar edi.

1992 yil davomida respublikada 408 ming kishiga xizmat ko'rsatildi, ulardan 40 ming kishi Hindiston, Pokiston, Turkiya, Janubiy-SHariqiy Osiyodan, 30 foizi yevropadan va 10 foizi SHimoliy va Lotin Amerikasidan kelgan turistlar edi. CHet ellarga 60 ming kishi yuborildi. Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi shu yili

1,2 mlrd so'mni, valyuta tushumlari 3,7 mln dollarni, foyda 180 mln so'mni tashkil qildi.

1993 yil oxiriga kelib respublika turizm tizimida huquqiy shaxs maqomiga va mustaqil balansga ega bo'lgan 123 tashkilot bor edi. O'tgan 1993 yilga nisbatan bu ko'rsatkichlarning turbazalardagi o'rnlardan boshqa barchasi kamaydi. O'rnlar soni 256 taga ko'paydi.

Tarmoqning rivojlanish ko'rsatkichlari eng yuqori bo'lgan 1988 yilga nisbatan 1993 yilda turizm-ekskursiya korxonalari soni 1,5 baravar, turbazalardagi o'rnlar soni 105 taga ortdi.

Respublika hududidagi turizmning moddiy-texnik bazasi g'oyatda notekis taqisimlangan: respublikadagi barcha ishlab chiqarish salohiyatining 40foiz qismi Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga, 37foizdan ortiq qismi Samarqand, Buxoro, Xiva va Urganchga, taxminan 16 foizi Farg'ona vodiysiga to'g'ri keladi. Qolgan 7 foiz respublikaning boshqa mintaqalari o'rtasida taqsimlanadi.

1993 yil davomida respublikada 457 ming turistga, shu jumladan 40 ming chet ellik turistlarga va 530 ming ekskursantlarga xizmat ko'rsatildi. Bu ko'rsatkichlar 1992 yilga nisbatan birmuncha ko'p bo'lsa-da, 1988 yilga qaraganda anchagina kamdir.

1994-95 yillar respublika turizmi rivojlanishida murakkab va ziddiyatli davr bo'ldi. Ular respublikada yuz berayotgan iqtisodiy jarayonlarning barcha muammolarini, o'tish davrining barcha qiyinchiliklarini o'z ichiga oldi.

Bu yillarda turizm taraqqiyotining asosiy ko'rsatkichlari quyidagichadir: turizm-ekskursiya xizmatlari hajmi birmuncha ortib, ikki yil uchun o'rtacha 237,6 mln so'mni tashkil qildi, asosiy ishlab chiqarish fonlarining qiymati 39 mln so'mdan ortdi, avtotransport hajmi ko'payib, 14,5 ming so'mni tashkil qildi, turizm korxonalarining rentabelligi 34,6 foizga yetdi va 1992 yilga nisbatan 2 baravardan ko'proqqa o'sdi.

Rentabellik asosan barcha turdag'i turizm xizmatlariga belgilangan narxlarning bir necha baravar oshganligi xisobiga o'sdi, bu esa farovonlikni va turizmni rivojlantirishning samaradorligini ko'rsatmaydi.

1996 yilda respublikada qabul qilingan turistlar soni 550 ming kishiga yetdi, ulardan 165 ming kishi chet ellik turistlardir. Turizm xizmatlari ko'rsatishning valyutadagi (AQSH dollarlarida) hajmi 101,2 mln dollardan 198 mln dollarga ortdi. Valyuta tushumlarini milliy valyutada xisoblaganda turizmnинг barcha xizmat ko'rsatish sohalarining yalpi ichki maxsulotidagi ulushi 1996 yilga kelib taxminan 9 foizni, valyuta tushumlari esa 67,5 foizni tashkil qildi.

Ammo baribir, olinayotgan daromad nuqtai nazaridan qaraganda, turizmnинг respublika milliy daromadidagi xissasi anchagina kichikligicha qolib kelmoqda.

Bunga ishonch xosil qilish uchun dunyodagi yetakchi mamlakatlardan olingan ma'lumotlarni taqqoslab ko'rish yetarli: Ispaniya, Frantsiya, Kanada, AQSH va Italiya mamlakatlarida bir yilda (1995 yil) mos ravishda 54 mln., 43 mln., 39 mln., 37 mln. va 27 mln. kishi mehmon bo'ladi.

Eko turizm (Jayron, Qoraqir, Og'itma), Gostronomik turizm (Milliy taomlar, shirinliklar), Agroturizm (Romitan, Buxoro, G'ijduvon, Vobkent tumanlari) Qishloq turizmi (hunarmandlar, mehmon uylari), Madaniy turizm (teatrlashgan tomoshalar), Plyaj (Quyi-mozor, Tudako'l) kabi yangi turistik marshrutlar va xizmatlar turlari o'zlashtirildi.

Shofirkon tumanida "Afzal Polimer zamini" fermer xo'jaligida jami 75 hektar yer maydoni bo'lib, shundan agro-eko turizm uchun 15 hektar yer maydoni ajratilgan. Sport salomatlik, baliq ovi, yovvoyi hayvonlar, tabiiy giyohlar bilan davolanish, ot va tuyalarda sayr qilish imkoniyatlari yaratilmoqda.

2.3. Mavsumiylikni yumshatishga viloyatining tuman (shahar)larida o'tkaziladigan festivallarning ahamiyati.

Buxoroda sayyohlar uchun muntazam ravishda yangi yo'nalishdagi madaniy va ko'ngilochar tadbirlarni tashkillashtirish maqsadida har yili o'tkaziladigan "Navro'z" bayrami, "Nasriddin afandi", "Sharq taomlari", "Ipak va ziravorlar" "Qovun sayli", "Hunarmandlar kuni", "Buxoro shahri kuni" festivallari va "Mahoratli pazandalar" ko'rik-tanlovlari o'tkazishning aniq kunlari belgilanib, amalga oshirilib kelinmoqda.

1-jadval

Viloyatning tuman (shahar)larida 2019 yildan boshlab (keyinchalik har yili) o'tkaziladigan festivallar ro'yxati.

№	Tuman (shahar)lar nomi	O'tkaziladigan festivallarning nomlanishi	Festival o'tkazilish vaqtি
1.	Buxoro shahar	"Ipak va ziravorlar" festivali	May oyining II dekadasida
2.		"Nasriddin Afandi va Sharq taomlari" festivali	1-2 Aprel
3.	Kogon shahar	"Xalqlar do'stligi" festivali	Mart oyining I dekadasida
4.	Buxoro tuman	"Agro turizm saboqlari" festivali	Avgust oyining III dekadasida
5.	Vobkent tuman	"Asal" sayli festivali	Iyun oyining I dekadasida
6.	Jondor tuman	"Varaxsha malikasi" qizlar ko'rik tanlovi	Mart oyining II dekadasida
7.	Kogon tuman	"Naqshbandiya o'gitlari" konferensiyasi	Iyul oyining I dekadasida

8.	Olot tuman	“Polvonlar mahorati” musoboqasi	Iyul oyining I dekadasida
9.	Peshku tuman	“Xalq tabobati va tabiblar tanlovi” festivali	Avgust oyining II dekadasida
10.	Romitan tuman	“Uzum va anjir” festivali	Sentyabr oyining I dekadasida
11.	Shofirkon tuman	“Kashtado’zlik va xalq o’yinlari” festivali	Aprel oyining I dekadasida
12.	Qorako’l tuman	“Poykent oqshomlari” musiqa festivali	Aprel oyining II dekadasida
13.	Qorovulbozor tuman	“Lola” saylini festivali	May oyining I dekadasida
14.	G’ijduvon tuman	“G’ijduvon kulolchiligi va pazandalari” festivali	May oyining II dekadasida

Manba: Buxoro viloyati Turizmni rivojlantirish departamenti.

Ichki turizm yo’nalishida “O’zbekiston bo’ylab sayohat qil” shiori ostida tizimli ishlar tashkil etilgan. Bu borada 2017 yil 20 noyabrdan boshlab, mahallalar, yoshlari, mehnat jamoalari, fermerlar, askar va zabitlaridan tarkib topgan guruhlarni Buxoroning “Etti pir” ziyoratgohlari va qadimiy obidalariga tizimli sayohatga olib chiqish amaliyoti yo’lga qo’yildi.

Bu masalada turistik kompaniyalar joylarda “Mahalla” kengashi, “Yoshlar ittifoqi” kengashi, Kasaba uyushmalari, Xotin-qizlar qo’mitalari va hokimliklar bilan yaqin hamkorlikda ishlar olib borilmoqda.

Shu tarzda, qishki mavsumda, ya’ni 2017 yil 20 noyabrdan 2018 yil 31 dekabrga qadar viloyatning 13 ta hududi (shahar va tumanlar)dan jami 50 mingga yaqin Buxoro viloyatiga, boshqa viloyatlarga 65 mingdan ortiq aholi sayohatga chiqqan bo’lib, viloyat iqtisodiga 21,2 mlrd.so’mdan ko’proq mablag’ jalb qilindi.

Ichki turizmni jadal rivojlantirish to'g'risida 7 fevralda qabul qilingan PQ-3514-soni qarorda belgilangan engilliklar, xodimlarni sayohatga chiqishi xarajatlarini soliq solish bazasidan kamaytirilishi bu borada yangi imkoniyatlarni yaratdi. Shunga ko'ra, aholini Respublika hududlaridan Buxoroga va Buxorodan boshqa viloyatlarga sayohatini tashkil qilish grafiklari tasdiqlanib, amalga oshirilmoqda.

Ichki turizm yo'nali shida Buxoroga keluvchi sayyoohlар soni (mustaqil ravishda sayohatga chiquvchilar bilan birga) 2,2 mln.dan oshdi.

Buxoroning yangilangan turistik xaritasi ishlab chiqilib, 20 000 nusxada chop etildi.

Buxoro shahrining qadimiy qismida 32 ta joyda yo'l belgilari, 10 dan ortiq joyda Wi-Fi xizmati o'rnatish, 6 ta joyda qahva, muzqaymoq va salqin ichimliklar sotish shaxobchalarini va 5 ta axborot markazlari tashkil etish (Infostentr) loyihalari yakuniga etkazilib, bugungi kunda ushbu axborot markazlari faoliyat yuritmoqda.

Turistlarga qulay sharoitlar yaratish bo'yicha Buxoro shahrining qadimiy qismiga yo'naltiruvchi Naqshband ko'chasida "Shoxrud" angori, "Ark" qo'rg'oni bo'ylab va "Poyi kalon" majmuasi yon tomonlarida keng ko'lamli bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Shaharning tarixiy qismida oqava suvlarning to'planib qolmasligi uchun yangidan kanalizastiya tarmog'i o'tkazilib, yo'llar kengaytirildi, asfalt yotqizildi, alohida piyodalar yo'lakchasi tashkil etilib, tungi yoritish chiroqlari, o'rindiqlar va chiqindi quttilari o'rnatildi, non mahsulotlari sotish paviloni ishga tushirildi. Turizm sohasidagi tashkilotlar faoliyati samaradorligini oshirish va kadrlarni tayyorlash yo'nali shida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 fevralda qabul qilgan PQ-3510-soni qaroriga muvofiq Buxoro viloyatida tashkil etilgan Turizm qo'mitasining hududiy Departamenti xorijiy tillarni yaxshi biladigan, tajribali

yosh mutaxassislar bilan to’ldirildi. Departamentning samarali faoliyatini tashkil etish bo'yicha alohida bino ajratildi.

Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi "Turizm sohasida kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash Respublika markazi" DUK bilan hamkorlikda Buxoro davlat universiteti qoshida 2018 yildan boshlab "Turizm sohasida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish Buxoro viloyat markazi" unitar korxonasi faoliyati yo'lga qo'yilib, iyun oyidan boshlangan 5 oylik o'quv jarayonida yakuni bo'yicha imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tgan 35 nafar tinglovchilarga davlat namunasidagi sertifikat hamda gidlik huquqini beruvchi guvohnomalar topshirildi. Hozirda yana 38 nafar tinglovchilar ushbu sohada faoliyat yuritishlari uchun o'qitilmoqda.

Universitet qoshida tashkil etilgan Koreys va Yapon markazlari yiliga jami hisobda 350 nafar shundan, 90 nafar koreys yo'nalishida 260 nafar yapon yo'nalishida tahsil olayotgan o'r ganuvchilarga ushbu davlatlar tili bilan birgalikda madaniyati hamda biznes kurslari bo'yicha tahsil berilmoqda. Bu holat ayniqsa, Yaponiya va J.Koreya davlat fuqarolari uchun vizasiz kirish ruxsatini berilganligi natijasida tashrif buyurgan sayyoohlar uchun qulaylik yaratmoqda.

Shu bilan bir qatorda universitetning turizm yo'nalishi negizida alohida fakultet sifatida qayta tashkil etilib, hozirgi kunda mazkur fakultetda "Turizm", "Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish", "Xizmatlar sohasi", "Iqtisodiyot", "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishlari bo'yicha jami 900 dan ortiq talaba bakalavr hamda "Turizm" mutaxassisligi yo'nalishida 12 nafar magistrant tahsil olmoqda.

Turizm yo'nalishida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning aksariyat qismi xorij mamlakatlarida o'qigan yoki malaka oshirgan bo'lib, kafedrada 1 nafar Janubiy Koreyalik mutaxassis faoliyat olib bormoqda.

2018 yilgi bitiruvchilaridan 7 nafar talaba va 1 nafar magistrant bitiruvishlarini ingliz tilida himoya qildi.

2017-2018 o'quv yilida fakultetning turizm va mehmonxona xo'jaligi yo'nalishlari talabalaridan 8 nafari xorijiy OTMlarda, professor-o'qituvchi va ilmiy tadqiqotchilardan 9 nafari xorijning etakchi OTMlarida tahsil olib, malaka oshirib qaytdi.

O'rta maxsus ta'lif yo'nalishida Buxoro turizm kollejida jami 483 nafar o'quvchiga 7 ta ta'lif yo'nalishi (shundan 85 nafari turistik xizmatlar tashkilotchisi, 60 nafar mehmonxona va restoran, 142 nafar oshpazlik, 196 nafar o'quvchi boshqa yo'nalishlar) bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda.

2018 yil noyabr oyida Buxoro davlat universiteti Yaponianing Vakayama universiteti bilan hamkorlikda "Turizm ta'lifi va tadqiqotlari markazi" tashkil qilindi.

III BOB BUXORODA TURIZMI MAVSUMIYLIK MUAMMOSI

YUMSHATISH YO'NALISHLARI

3.1. Buxoro turizmida mavsumiylikni ahamiyati.

Buxoro turizmda mavsumiylik anchagina yuqori hisoblanadi. Bu yerda yoz payti juda issiq, qish payti esa soviq hisoblanadi. Asosan bu yerda bahorgi va kuzgi fasillarda turistlar oqimiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Biz shu qolgan ikki fasilda turistlarni jalb qilish maqsadida turli xildagi festivallar o'tkazishni ko'zda tutganimiz. Bularga misol qilib "Ipak va ziravorlar", "Palov sayli" kabi festivallarni o'tkazib kelinmoqda, 2019-yil 26-28 may kunlari Buxoroda "Ipak va ziravorlar" festivali o'tkazildi.

Ushbu tadbir O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va Buxoro viloyati hokimligi tashabbusi bilan tashkil etilmoqda. "Ipak va ziravorlar" an'anaviy festivali doirasida ko'plab boshqa tadbirdarni ham o'tkazish rejalashtirilmoqda.

Festivalga tashrif buyuradigan xorijiy mehmonlar va yurtimizning turli go'shalaridan kelgan ziravor mahsulotlari, ipak matolaridan milliy ruhdagi mahsulotlar namoyish etiladi hamda o'zbek xalqining milliy hunarmandchiligi hisoblangan gilamdo'zlik, zardo'zlik, kulolchilik bo'yicha mahorat darslari olib boriladi.

Shu bilan birga, xalq sayli shaklida tashkil etilayotgan madaniy tadbirdarda milliy xalq o'yinlaridan – qo'chqor urushtirish, xo'rozlar jangi, dorbozlik va polvonlar tomoshalari ko'rsatiladi.

"Palov sayli" da barcha viloyatlardan kelgan mahoratli oshpazlar o'rtasida milliy taomlar tayyorlanib, musobaqalar o'tkaziladi va festival mehmonlari tomonidan ta'tib ko'rilib, shaxsan baho berish imkoniyati ham mavjud.

Bundan tashqari Folklor-etnografik dastalarining chiqishlari shaharning bir necha maydonida o'tkazilsa, 27 may oqshomida Buxoro san`at kolleji va viloyat musiqali drama teatri xalq cholq'u asboblari orkestri Nodirdevonbegi xonaqosi oldidagi maydonda konsert dasturini namoyish etadi. O'zbek milliy

filmlari namoyishi nafaqat buxoroliklar, balki chet ellik sayyoohlarda ham katta qiziqish uyg'otishi aniq.

Bu yil festivalning tantanali yopilish marosimi, g'oliblarni taqdirlash hamda viloyatimiz va respublikamiz poytaxti taniqli san`atkorlari gala-konserti qadimiy Ark qal`asi oldidagi maydonda 5 ming nafar tomoshabin va mehmonlar ishtirokida o'tkaziladi. Xullas, an`anaviy XVI «Ipak va ziravorlar» xalqaro festivali amaliy san`at ustalari hamda turizm sohasi mutaxassislari, minglab buxoroliklar va sayyoohlар uchun katta bayramga aylanadi.

O'zbekistonda Buxoro viloyati bo`yicha turizm istiqbolli sayyoohlik uchun yangi yo`nalishlar

Tarixiy obidalarga boy yurtimizning sayyoohlik biznesi salohiyati juda katta. Ayni paytda turistik agentliklarimiz sobiq ittifoqdan meros bo`lib qolgan, sayyoohlarni guruh tarzida qabul qilish kabi xizmatlarni ko`rsatishadi.

Biroq dunyoda bir talay yangi va zamонавиу туризм турлари ham paydo bo`lgани, ularning ayrimlarini Buxoroda tatbiq etish ayni muddao bo`lar edi. Bu joylarda qo'shimcha daromad va ish o'rirlari yaratilishiga olib kelishi shubhasiz. So'nggi yillarda jahon bo'y lab turizmning unutilgan, yangi, innovatsion ko'rinishlari paydo bo'lmoqda.

O'zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi turizm sohasi ulushi bor-yo'g'i 2,3 foiz. Xorijiy davlatlarda ushbu ko'rsatkich 10 foizgacha yetadi. Albatta, bizning salohiyatimiz yuqori. Biz turizmning ahamiyati va rolini oshirishimiz kerak. Bugungi kunda qilinayotgan barcha sa'y-harakatlar yaqin yillarda bu raqamni 5 foizgacha ko'tarish imkoniyatimiz borligini asoslaydi.

O'zbekistonda turizm o'sishining asosiy manbalari haqida gapirsak, biz nafaqat xorijdan turistlarni jalb etishga yondashmoqdamiz, shuningdek, kuchli taraqqiyot omili bo'lgan ichki turizmni ham rivojlantirish shart. Bu sohaga investitsiya kiritmoqchi bo'lgan tadbirkorlar turistik sohaga yo'naltirilgan aktivlar o'rtacha 4-5 oyda ish berishi bilan bog'liq muammolarga duchor bo'lishmoqda. Binobarin, ichki turizmni rivojlantirish dasturini faol amalga

oshirish turizmni yil bo‘yi qilish, tadbirkorlarga esa yil bo‘yi daromad olish imkonini yaratadi.

Qishloq turizmi

Bunday turizm shaharlarda yashovchi o‘zbekistonliklar uchun ham, xorijlik sayyoohlar uchun ham birdek qiziq — qishloqning toza havosi, xo‘roz qichqirig‘i bilan uyg‘onish, yangi uzilgan sarxil meva-sabzavotlar, sut mahsulotlarini tatib ko‘rish. Ot, tuya kabi uy hayvonlarini minib ko‘rish va boshqalar. Keyingi paytlarda jahonda paydo bo‘lgan agroturizmni ham mana shu turistik yo‘nalishga qo‘shsa bo‘ladi. Hosilni yig‘ib olish davrida ishtirok etish ham sarguzashtalablar uchun qiziqarli. O‘zingiz bir tasavvur qilib ko‘ring: pishib yetilgan paxta dalalarida turistlar paxta terib yurishsa. Fermerlarimiz mana shundan ham qo‘shimcha daromad qilishlari mumkin.

Bu turizm yo‘nalishi haqida hikoya qiluvchi ayrim saytlar, jumladan, agriturismo.net otda sayr qilishni yoqtiradiganlar uchun Toskanadagi barcha fermer xo‘jaliklari haqida ma'lumot bor, Amerikaning Agrotours saytida esa hamma narsa bor: «Meni bu yerdan osmono‘par binolar va mashinalar yo‘q go‘shalarga olib keting»dan tortib, «Avstraliyaning go‘sht tayyorlovchi fermalari qanday tuzilgan»gacha. Hindistonning Agri Tourism shiori esa quyidagicha: «O‘zgarish uchun ibtidoga qaytish kerak». Hindiston bugungi kunda qadimiylashtirish uchun eng zo‘r mamlakatlardan biri hisoblanadi. Isroilda qishloq xo‘jaligi turizmi bilan qishloq xo‘jaligi vazirligi shug‘ullanar ekan. Isroilda esa sayohatning 16ta g‘oyasi taklif etiladi — baliq tutishdan boshlab asalarichilikka.

Jayloo turizm

Biz turizm sohasida «olma pish — og‘zimga tush», deya qayerdandir najot kutib o‘tirganimizda tarixiy obidalari bilan maqtana olmaydigan qirg‘izlar turizmning ushbu turini rivojlantirib, butun jahonda qirg‘izcha nom bilan ommalashishiga erishib ham bo‘lishdi. Jayloo qirg‘izchadan tarjima qilinganida yaylov degan ma’noni beradi — qardosh xalq. Jayloo-turistlar sayyoramizning inson qadami yetmagan go‘shalari — Osiyoning tog‘lari va

dashtlari, Sibir va Shimoliy Amerika o‘rmonlariga, Afrika qo‘riqxonalariga sayohat qilishadi — asosiy sabab: sivilizatsiya shart-sharoitlaridan biroz chekinish. Buxoroda ham yaylovlar, qo‘riqxonalar juda mo‘l. Faqat tog‘ga chiqishda tajribangiz bo‘lmasa, ekstremal yo‘nalishlarni tanlamagan ma'qul.

Yaylov turizmini etnik turizm bilan omixta qilish mumkin — yaylovlarda yashayotgan cho‘ponlarning mehmoni bo‘lish, ular bilan birga hayot kechirib ko‘rish, tuya, ot, chorva va qo‘y-qo‘zilarni boqish mumkin. «Sayohat nima bo‘lishidan qat’iy nazar, har qanday jihatdan ko‘proq narsa o‘rgatadi. Ba’zida boshqa joyda o‘tkazilgan bir kun, uyda o‘tkazilgan o‘n yildan ko‘proq narsa beradi». Anatol Frans Frantsuz yozuvchisi va adabiy tanqidchisi..

Gastronomik turizm

Taom pishirish kurslari va milliy taomlar restorani hamma yerda bor, lekin milliy taomlar tayyorlanishi jarayoni bilan o‘sha taomlarning vatanida tanishish doimo turistlar uchun qiziqarli bo‘lib kelgan. Buxoro oshxonasi bu borada maqtansa arzigulik natijalarga ega. To‘y oshini Toshkentda, no‘xatsho‘rakni Samarqandda, tandir go‘shtni vohada tatib ko‘rishga nima yetsin. Aynan turistlarga ma'lum bir milliy taomimizning tayyorlanish jarayonini namoyish etib, master-klass o‘tkaziladigan, bir yo‘la ularning qorni to‘yg‘aziladigan kichik oshxonalar ochishga allaqachon fursat yetgan. Bahorda qulupnay sayli, kuz faslida qovun sayli kabi sayllarimiz bilan ham turistlarni jalb etish mumkin.

Ziyoratchilik turizmi

Buxoroda shiddat bilan taraqqiy toptirish mumkin bo‘lgan, buning uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo‘lgan turizm yo‘nalishlaridan biri. Jahonga mashhur yetti pir va boshqa diniy muhaddislar vatani hisoblanadi.

Tibbiyot turizmi

Isroilda saraton kasalligini davolovchi eng yaxshi mutaxassislar to‘planishgan. Tailanddagi vrachlar bemorning tanasida zarur a'zoni o‘stirish bo‘yicha yangi texnologiyani ixtiro qilishgan (asosan kichikroq a'zolar —

burun, qulqoq, qovoqlar o'stirilmoqda). Germaniyada esa qorin bo'shlig'idagi operatsiyalari bilan mashhur, Litvadagi plastik operatsiyalar hamyonbop. Ayni paytda tibbiyot turizmi ham ham qabul qiluvchi mamlakat uchun, ham davolanishga kelayotgan bemorlar uchun iqtisodiy jihatdan manzur. Gap shundaki, bemorlarga arzon bahoga sifatli xizmat ko'rsatish imkoniyati beriladi.

Shopping turizm

Shop-turlar mamlakatimizda 2000-yillarning boshida boshlangan. Ko'pchilik Turkiya va Xitoyga, shuningdek Birlashgan Arab Amirliklariga borib, mahsulot keltirib o'zimizda pullashgan. Hanuzgacha chegaradosh hududlarda qo'shni davlatlar bilan ana shunday oldi-sotdi davom etmoqda. Ayni paytda ko'pchilik o'ziga to'q oilalar narxlarga chegirma e'lon qilinadigan mavsumlarda Yevropa va BAAGa xarid uchun yo'l olishmoqda. Bizda ham shopping turizmni rivojlantirish uchun salohiyat bor. Lekin buning uchun avvalo yengil sanoatmiz va aytaylik, zargarlik sanoatimiz ravnaq topishi, dunyoda o'z o'rniiga ega bo'lishi kerak. Buxoroda tabiiy mahsulotlardan to'qib tayyorlangan arzon va sifatli gazlamalar, kiyim-kechaklar, sharqona noziklik bilan yasalgan zargarlik buyumlari vatanidir.

Ekoturizm

Turizmnинг mazkur turi ixlosmandlari tabiat bilan yakka-yolg'iz qolib ruhiy quvvat oladi. Ekologik turistlar uchun mehmonxona sifatida qo'riqxonadagi kapa, u yerda qo'shni sifatida yovvoyi hayvonlar xizmat qiladi. Maqsad — xavfsiz masofadan turib kuzatish va ozor yetkazmaslik. Hattoki ekologik turistlarning xalqaro hamjamiyati ham tuzilgan bo'lib, dam olish asnosida atrof-muhitga foyda keltirishni istashadi. Buxoroda ushbu turizm turini rivojlantirish, sayyoohlarga ekologiya bilan yuzma-yuz bo'lishga sharoit yaratish imkoniyatlari bisyor. Orol bo'yi mintaqasi, Qizilqum cho'llari, Aydarko'l, tog' tizmalari... Bu maskalarining tajribasini puxta o'rganish va kuzatishga arziydi.

3.2. Buxoro turizmida mavsumiylikni yumshatish chora tadbirlari

Buxoroda mavsumiylikni yumshatish uchun anch ishlar olib borilmoqda bularga misol qilib Buxoroda turistik erkin iqtisodiy zonasining ochilishini misol qilishimiz mumkin.

Hozirgi paytda 7000 dan ortiq erkin iqtisodiy hududlar faoliyati tashkil etilgan bo'lib, ular iqtisodiyotning turli sohalariga ixtisoslashgan. Rivojlangan mamlakatlar ham, rivojlanayotgan mamlakatlarning ham hududlarida, albatta turli maqsadlarni ko'zlab sayyoqlikka ixtisoslashgan EIHLar vujudga keltirilmoqda. Bunday EIHLarning barpo etilishidan asosiy maqsad esa iqtisodiy barqarorlikka erishish bo'lib hisoblanadi. Bunda hal etiladigan aniq vazifalar orasidan quyidagilarni alohida ko'rsatish mumkin: maxsus imtiyozlar, barqaror qonuniy baza va tashkiliy muolajalarni soddalashtirish tufayli xorijiy kapitalni va ilg`or texnologiyalarni jalg`etish, tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish uchun mehnat taqsimoti afzalliklaridan foydalanish, mamlakat va mintaqqa budgetiga valyuta tushumining o'sishi, yangi ish joylarini yaratish, tashkil qilish, boshqarish va moliya sohasida jahon tajribasini o'rganish va amaliyotga joriy etish hisobidan ish kuchi malakasini oshirish.

Erkin iqtisodiy hududlarning turizm sohasiga ixtisoslashtirilgani ilmiy jihatdan o'rganilgan sohalardan biri bo'lib, turizm rivojlanishi uchun amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Juhon iqtisodiyotida EIHLarga nisbatan turizmga ixtisoslashgan EIHLar hozircha kam, ammo keyingi yillarda ko'pgina davlatlarda shunday hududlarni tashkil etish e`lon qilinmoqda. Bunday hududlar Polsha, Rossiya, Ispaniya, Tunis, BAA, Turkmaniston, Tojikiston, Gruziya, Filippin, Eron, Marokash, Xitoy va boshqa ayrim malakatlarda bor. Xususan, Xitoy hamda Rossiya iqtisodiyoti tahlil qilinganda mazkur iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi mamlakat iqtisodiy o'sishiga olib kelgan. XITOY. 1979-2014-yillarda Xitoyning aholi jon boshiga YaIMi qariyb 16 marta, ya`ni 195 AQSh doll.dan 3583 AQSh doll.ga o'sdi. Xitoy jahon iqtisodiyotiga integratsiyalasha boshladi hamda Xitoy YaIMi yiliga o'rtacha 10% o'sishga erishdi. 2010-yilga kelib YaIM hajmi bo'yicha

Yaponiyani ortda qoldirib, dunyodagi eng katta ikkinchi iqtisodiyotga aylandi. Bu ko'rsatkichni esa bugungi kunga qadar saqlab kelmoqda. Shu davr mobaynida 500 mln.dan ortiq aholi qashshoqlikdan xalos bo'ldi.

Tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ldiki, ko'p yillar davomida hukm surgan markaziy rejalarshirilgan iqtisodiyotdan zamonaviy bozor iqtisodiyotiga o'tish maqsadida 1978-yildan boshlab "Ochiq eshiklar" siyosati doirasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Bunda Xitoyda turli shakldagi maxsus iqtisodiy zonalar (EIZ)ni tashkil etish muhim yo'naliшlardan biri bo'lib, EIZlarni tashkil etishdan asosiy maqsadlar quyidagicha edi: - xorijiy kapitalni maksimal darajada jalg qilish, sanoatning ilmiy sig`imli sohalarini yuqori texnologiyalar asosida rivojlantirish; - xalqaro mehnat taqsimotida samarali ishtirok etish, eksport hajmi va xorijiy valyuta tushumini oshirish; - EIZ joylashgan hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni Hong Kong, Singapur va boshqa yangi industrial davlatlaridagi kabi rivojlantirish; - arzon va ortiqcha ishchi kuchi hamda boy xomashyo salohiyatidan to'gri foydalanish; - boshqaruv malakasiga ega bo'lish va milliy kadrlarni tayyorlash.

Xitoyda EIZlarning tashkil etilish jarayonini 4 bosqichda kuzatishimiz mumkin: 1970 – yil oxiri 1980 – yillar boshlari, 1980 – yillar, 1990 – yillar, 1990 – yildan hozirgi kungacha davom etayotgan zamonaviy davr. Har bir davrda erkin iqtisodiy hududlar turlicha rivojlanib bordi. Xitoyda 100dan ortiq TEIHLar faoliyati tashkil qilingan bo'lib, ulardan Syuni, Chunmin, Binxay, Kanas, Cheju, Chechjen, Dolyan, Ninxia, Luipai, Guangdon, Shenchjen kabi hududlar o'rGANilib, faoliyati keng qamrovda tahlil qilindi. Bunda mazkur hududlarda amalga oshirilayotgan strategik yondashuv, konsepsiya hamda dasturlarni Buxoro sharoitida qo'llash, dastak sifatida foydalanish mumkin. Konsepsiya – bu asosiy ideologik hujjatlardan biri bo'lib, haqqoniylar nima qurayotganimizni baholab, tushuntirib, izohlab berishga yordanm beradi va eng muhimi oxirida qanday natijaga erishishimiz kerakligiga yo'naltiradi. Bu hujjatning ishlab chiqlishida mijoz sifatida yondashuv ham talab qilinadi, masalan tashkil etilgan turistik erkin iqtisodiy hududda dam olish

uchun sharoit qanday, moliyaviy jihatdan qay darajda qulay yoki hamyonbop va hokazo.

Konsepsiya nafaqat xizmat ko'rsatuvchi, balki xizmat ko'rsatiluvchi shaxsningg ham manfaatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi lozim.[3] Turizmga ixtisoslashgan EIHLarning uzoq muddatga mo'ljallangan dasturini ishlab chiqishda xalqaro turizm rivojining asosiy yo'naliishlari, muammolari va perspektivalarini chuqur o'rganish talab qilinadi. Bundan tashqari, EIHL yaratishda xorijiy tajribani o'rganish ham zarur, ammo faqat unga tayanib hududni tashkil etib bo'lmaydi.

Mahalliy ehtiyojlar va mahalliy shart-sharoitlarni chuqur o'rganib hisobga olishga to'g'ri keladi. Aks holda, aytgan natijaga erishib bo'lmaydi. Sanoat - savdo va transport-savdo sohasiga ixtisoslashgan EIHLardan farqli ravishda, turizmga ixtisoslashgan EIHLar quyidagi maxsus shart-sharoitlarni talab qiladi: o maxsus turistik moddiy - texnika bazasining mavjudligi; o maxsus turistik infrastrukturaning mavjudligi; o turistik xizmatlarning assortimenti etarli darajada rang-barangligi; o malakali xodimlarning mavjudligi; o turistik xizmatlarga talabning etarli darajada bo'lishi; o transport shaxobchalarining etarli darajada rivojlanganligi va boshqalar.

Yuqoridagilarning barchasi ham bugungi kunda mamlakatimizda mavjud emas. Misol sifatida infrastrukturani rivojlantirish, transport, aloqa tizimini yaxshilash hamda salohiyatli kadrlarni tayyorlash kabi vazifalarni TEIH barpo etish bilan birgalikda olib borsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bunday hududlarning tashkil qilinishi mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining oshishi, rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Buning uchun Buxoro hududining turistik obyektlari va rekratsion imkoniyatlari yetarli darajada, faqatgina bugungi kunda ulardan to'laqonli foydalanilmayapti. Sayyohlik erkin iqtisodiy hududlar yaratish bir qator muhim muammolarni: moliya-kredit, ilmiy texnika, ijtimoiy muammolarini hal etish bilan bog`liqdir. Ba`zi mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, yaxlit bir konsepsiya darajasida ishlab chiqilmagan erkin sayyohlik hududlari (ESH) g`oyasi sayyohlik erkin iqtisodiy hududlar ishining umumiyl

samaradorligiga salbiy ta`sir etadi va pirovardida noxush oqibatlarga olib keladi. Iqtisodiyotni zamonaviylashtirish va mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb etish vositasi bo`lish o`rniga hudud imtiyozlari ayrim davlat guruhlarini yashirin subsidiyalash vositasiga aylanadi, jamg`arilgan kapitallarning chet ellarga chiqib ketishiga sabab bo`ladi.

Turizmga ixtisoslashgan EIHLarni yaratishda salohiyatli kadrlarning mavjudligi ham muhim omil hisoblanadi. Yetarli kadrlar bo`lsagina bunday hududlarni yaratish mumkin. Masalan, Janubiy – SHarqiy Osiyo mamlakatlaridagi bunday hududlarida mehnat qiymati va unumidorligi, xodimlar malakasining turli-tumanligi ko`p holda hududga jalb etilayotgan ishlab chiqarish turini belgilaydi. TEIHLarning yana bir muhim omili – alohida valyuta tartibidan iborat bo`lib, bu tartib milliy va chet el valyutalarining erkin muomalada bo`lishini va konvertirlanganligini nazarda tutadi.

Turistik EIHNi yaratishdan ko`zlangan maqsad - xalqaro turizmning o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish va mamlakatga kelayotgan turistlar oqimini barqarorlashtirish maqsadida turistik ob`ektlarni qurish va ekspluatatsiya qilishda xorijiy hamkorlarni jalb qilishdan iborat. O'zbekiston uchun erkin iqtisodiy hududlar yaratishda eng perspektivalisi - tranzit (transport), savdo sohasiga ixtisoslashgan EIHLar bilan bir qatorda xalqaro turizmga ixtisoslashgan EIHLar hisoblanadi. Bundan tashqari, xalqaro turizm bo'yicha bir necha stadionlar va sport assotsiatsiyalariga tayanuvchi erkin hudud yaratish (savdo bo'yicha erkin savdoni ham tashkil etgan holda) bo'yicha ish olib borilmoqda.

Toshkentda esa «quruqlikdagi port» maxsus hudud tashkil etish boshlandi. Bunga Yaponiyaning «Sumito korporeyshn» korporatsiyasi bosh bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi sayyohlik tizimini jahonning sayyohlik tizimiga qo'shib yuborishdan maqsad, sayyohlikni respublika iqtisodiyotining ustuvor tarmog`iga aylantirishdan iborat bo'lmos`i kerak. 1998 yilda Xalqaro turizm tashkiloti “Buyuk ipak yo'lini tiklash” bo'yicha xalqaro dastur qabul qilgan edi. Bu dastur ham respublikamiz uchun ko`p narsa beradi. Shuni aytish kerakki, Buyuk Ipak yo'lida sayyohlikni amalga oshirish, O'zbekiston va Markaziy Osiyo xalqlari madaniy

merosini kompleks tiklash va saqlab qolish ham XTTning maqsadiga aylanib bormoqda. Buyuk ipak yo'lidagi shaharlar Buxoro, Samarqand, Xiva va Qo'qon, Toshkentda erkin sayyohlik hududi tashkil etishga katta umid bilan qaralmoqda. Bu ESHlarning asosiy maqsadi sayyohlik strategiyasini rivojlashtirish uchun chet eldan mamlakatimizga investitsiyalarini jalb qilib, uni asta - sekin jahon sayyohlik tizimiga qo'shib yuborishdir.

ESHlar orqali sayyoh sifatida O'zbekistonga kirib keladigan chet ellik fuqarolar erkin mintaqaga aeroportlarida pasportlarini ko'rsatib, viza olishlari mumkin bo'ladi. O'z navbatida Vazirlar Mahkamasi sayyohlikni rag'batlantirish maqsadida ESHga kirib kelayotgan chet ellik sayyohlar uchun viza tariflarini qayta ko'rib chiqishi kerak.

Mazkur sohaning rivoji uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2016 – yil 6-dekabrda qabul qilgan “O'zbekiston respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida” qarori amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, EIHLar yaratish borasida respublikamizda takliflar anchagina, ammo, EIHLar yaratish borasida bu sanab o'tilgan takliflar joy, soha va tarmoq tanlashda puxta o'ylanilmagan, deb hisoblaymiz.

Ko'pgina mamlakatlar EIHLarni oddiy shakllaridan kompleks turiga qarab rivojlantirib borgan. Bu ishni O'zbekistonda ham sodda shakldagi hududlardan boshlash kerak, degan xulosa olib keladi. Keyin esa amaliyotni o'zi yo'l ko'rsatib beradi. Konsepsiylar va takliflarni ko'paytirishdan unchalik naf yo'q. Masalan, 1991-1998 yillar davomida Rossiyaning “Kalininingrad” EIHLni rivojlantirish bo'yicha 30-40 konsepsiya taklif qilingan, ammo natija esa aytarli darajada emas. Xullas, O'zbekistonda EIHLarni ma'lum bir modul asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir, ya'ni yaxshi jihozlangan g'oyani yaratib, so'ngra shu g'oya atrofida o'zlashtirishni olib borish kerak. Bu g'oyani yaratish faoliyati esa 2017-2021 yillar davomida keskin o'zgarishlarga olib kelgan holda boshlanmoqda nazarimizda.

Buxoro hududida rekonstruksiya ishlarining boshlanishi, shaharning turistik salohiyatini, jozibadorligini oshirish turistlar qamrovini kengaytirish uchun xizmat

qilishi mumkin. Buxoro viloyatida so'nggi 2 yilda turizm rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari Manba: Buxoro viloyati Davlat statistika Qo'mitasi EIHni aniq bir ishdan, kichik bir faoliyatdan boshlash kerak, obro'li, arziyidigan hamkorlar bilan ish boshlash kerak. Bunday faoliyatni boshlash uchun esa mamlakatimizda yetarli sharoitlar yaratib berilgan. Bunday faoliyat joriy qilinsa, o'ylaymizki viloyatimizda turistlar qimi ham, ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi ham, ulardan keladigan tushum ham sezilarli darajada ortadi. Bu esa iqtisodiy o'sishga hamda aholi daromadlariga ijobjiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining Xorazm, Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlariga tashrifi mobaynida, tadbirkorlar bilan uchrashuvlarda ta'kidlaganidek, xizmat ko'rsatish va turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xususan, yangi mehmonxonalar qurish, ulardagi sharoit va qulayliklarni xalqaro talablarga mos tashkil etish, xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Buxoro viloyatida ushbu sohalarda aholining katta qismi tadbirkorlik faoliyatini yuritadi. Viloyatning jami 108 ta mehmonxonalari yurtimiz turizmi rivojida katta ahamiyatga ega bo'lib, turar joy xizmatlarini ko'rsatish va sayyoohlar oqimi oshirishda muhim o'rinni egallamoqda.

Joriy yilning 10 aprel kuni Buxoro shahrida O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va O'zbekiston-Yaponiya markazi Buxoro viloyati bo'limi hamkorlikda "O'zbekistonda turizm marketingi-Buxoro hududida turizmning rivojlanishi" mavzusida 3 kunlik o'quv-seminarlari boshlandi. O'quv-seminarlari Strategic Consulting Firm Co.LTD korxonasi bosh direktori va prezidenti, professor Fujita Shinobu tomonidan o'tkazildi.

Seminarda Navoiy, Samarkand va Buxoro viloyatlarida turizm sohasida faoliyat yuritayotgan mehmonxona va restoran biznesi xodimlari, oliy ta'lim muassasalari o'qituvchi-professorlari, magistrlar, suvenir savdosi bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar, transport tizimida ishlovchi xodimlar qatnashdilar.

Buxoro viloyatining turizm infratuzilmasi darajasi, xodimlar malakasi, turizm imkoniyatlari O'zbekistonning boshqa viloyatlaridan farqli tomonlari yaponiyalik

professor va mutaxassislari tomonidan taqqoslandi va Buxoroning turizm salohiyati har tomonlama yaxshi darajada ekanligi ta'kidlandi.

3 kun davomida o'tkaziladigan seminarlarda tinglovchilar turizmning umumiy ta'rifi va maqsadi, marketing strategiyasi, Buxoro turizmining strategiyasi, Buxoro turizm turlarining segmantatsiyasi, marketingni rivojlantirish va kengaytirish usullari kabi bilimlarga ega bo'ldilar.

Turizm sohasini rivojlantirish va turistik xizmatlar ko'lamin kengaytirish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Buxoro viloyatida olib borilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot.

